2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 209 (1808), 2026-yil 9-oktabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING MASLAHAT UCHRASHUVIDA KENG KO‘LAMLI TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-oktabr kuni Turkmanistondagi “Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi.



Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o‘tgan sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, yetakchilar dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashib, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollarini ko‘rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda yuz bergan ijobiy o‘zgarishlarni qayd etdi. O‘zbekiston yetakchisi ta’kidlaganidek, bunda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muhim o‘rin tutdi.

Prezidentimiz Markaziy Osiyoni XXI asrda rivojlantirish maqsadida Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani tuzish jarayoni yakunlanganining tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidladi.

Mintaqaviy jarayon doirasida katta va murakkab tuzilmalarni tashkil etishga intilish yo‘qligi qayd etildi.

Shu bois, hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha kelgusidagi qo‘shma faoliyatni yanada yaqinroq muvofiqlashtirish ahamiyati ko‘rsatib o‘tildi.

Avvalo, tarixiy, iqtisodiy va transport aloqalari mavjud mintaqalar bilan yagona hamkorlik makonini shakllantirish g‘oyasi ilgari surildi. Paydo bo‘layotgan imkoniyatlardan foydalanib, bu aloqalarni ancha mustahkamlash hamda savdo, transport, energetika, sanoat va yangi texnologiyalarni birgalikda rivojlantirish bo‘yicha aniq mazmun bilan boyitish zarurligi ta’kidlandi.

Ushbu masalalarni kelgusi yili Toshkentda o‘tkaziladigan “Tinchlik va barqaror o‘zaro bog‘liqlik yo‘lida mintaqalararo muloqot: Markaziy Osiyo yondashuvi” xalqaro konferensiyasida batafsil muhokama qilish taklif etildi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ishlarini davom ettirish orqali mintaqaviy muloqot asoslarini mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

Iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

— Biz o‘zaro savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha oldimizga jiddiy maqsadlar qo‘yganmiz. Endi bu o‘sish qaysi manbalar hisobidan ta’minlanishini belgilab olishimiz kerak, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Yirik loyihalarni tezroq ishga tushirishga xizmat qiladigan qo‘shma sanoat va texnologik zanjirlar, umumiy raqamli xizmatlar hamda investitsiya mexanizmlarini shakllantirish vazifalari belgilab berildi.

— Biz bir-birimiz bilan oddiy savdo qilishning o‘zi yetarli bo‘lmay qolgan bosqichga yetib keldik. Yakuniy mahsulotni birgalikda yaratishimiz kerak. “Olti iqtisodiyot — bitta mahsulot” formulasi biz intilishimiz lozim bo‘lgan maqsad mohiyatini yaxshi ifodalaydi, — dedi Prezidentimiz.

Ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun 2027-yilda Xivada Markaziy Osiyo va Ozarbayjon biznes forumini o‘tkazish, shuningdek, qo‘shma investitsiya loyihalarini moliyaviy-texnik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus platformani tashkil etish taklif qilindi.

Savdo va investitsiyalar vazirlari kengashiga Ashxoboddagi navbatdagi yig‘ilishida bu masalani batafsil ko‘rib chiqishni topshirish zarurligi qayd etildi.

Shundan so‘ng mintaqa mamlakatlarining zamonaviy transport-logistika tarmog‘i orqali o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirish ahamiyati ta’kidlandi.

— Biz global savdoning asosiy quruqlik yo‘nalishlaridan biriga va ayni paytda yirik iqtisodiy faollik markaziga aylanishimiz mumkin. Biroq buning uchun avtomobil va temir yo‘llar qurishning o‘zi yetarli emas. Transport infratuzilmasini rivojlantirishda umumiy yondashuv zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yirik loyihalar yagona tizim sifatida ishlashi uchun ularni muvofiqlashtirish zarurligiga e’tibor qaratildi.

— Yangi transport yo‘laklari bo‘ylab ishlab chiqarish korxonalari, logistika va xizmat ko‘rsatish obyektlari, sanoat zonalari paydo bo‘lishi kerak. Shunda transport yo‘nalishi o‘z atrofida iqtisodiy faollikni yuzaga keltirib, u o‘tadigan har bir davlatga ancha katta samara keltiradi, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadda Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha kengashni tashkil etishni tezlashtirish va uning birinchi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

Energetika sohasiga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. Mintaqa uglevodorodlardan tortib, gidroenergetika, quyosh va shamol generatsiyasigacha bo‘lgan turli resurslar va katta salohiyatga ega ekani qayd etildi.

“Yashil” rivojlanishning ahamiyatini hisobga olib, past uglerodli energetika salohiyati bo‘yicha qo‘shma konsepsiyani tayyorlash tashabbusi ilgari surildi. Bu yangi generatsiya quvvatlarini qurish, zamonaviy energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish va yangi energetika yo‘laklarini yaratish bo‘yicha ishlarni yaxshiroq muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Suv resurslari va iqlim o‘zgarishi ham birgalikda yechim topishni talab qiladigan yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatildi. Zamonaviy raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalardan keng foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligini e’lon qilishga doir umumiy tashabbusni to‘liq ro‘yobga chiqarishga chaqirildi.

Kelgusi yili O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik qilishini inobatga olib, jamg‘arma faoliyati samaradorligini oshirish, yangi ekologik loyihalarni ishga tushirish va qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb etish bo‘yicha ustuvor vazifalar taqdim etildi.

Afg‘oniston bilan suv resurslaridan foydalanish masalalari yuzasidan mintaqa barcha mamlakatlarining manfaatlarini hisobga olgan holda doimiy va predmetli muloqotni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratildi.

Havoning ifloslanishi mintaqa mamlakatlari shaharlari uchun jiddiy muammolardan biri ekani ta’kidlandi. Bunga javoban O‘zbekiston ilgari surgan “Markaziy Osiyo toza havosi” xalqaro konsorsiumi faoliyatini mintaqa mamlakatlaridagi sanoat zonalari, agroklasterlar va transport uzellarini ekologik modernizatsiya qilish bo‘yicha pilot dasturdan boshlash taklif etildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING SAKKIZINCHI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Hurmatli Serdar Gurbanguliyevich!

Hurmatli davlat rahbarlari!

Avvalo, samimiy qabul va uchrashuvimizni a’lo darajada tashkil etgani uchun Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Biz yana Kaspiy sohilida, Avazada yig‘ildik.

Bugungi uchrashuvimiz alohida ahamiyatga ega bo‘lib, birinchi marta qardosh Ozarbayjon bilan birgalikda o‘tkazilmoqda.

Turkmanistonning raisligini alohida e’tirof etmoqchiman. Biz yil davomida mintaqaviy hamkorlik borasida sezilarli yutuqlarga va ko‘plab muhim masalalar bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishdik.

Ko‘p yillardan buyon mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashga ulkan shaxsiy hissa qo‘shib kelayotgan turkman xalqining Milliy Yetakchisi, hurmatli Gurbanguli Myalikguliyevich Berdimuhamedovga alohida minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning muhiti o‘zgardi. Biz tez-tez uchrashib, masalalarni ochiq muhokama qilib, yechimlar topib, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlay boshladik.

Bunda bizning Maslahat uchrashuvlarimiz katta rol o‘ynadi. Ushbu formatni yaratar ekanmiz, biz oddiy tushunchadan kelib chiqib ish tutgan edik: Markaziy Osiyoning farovonligi va xavfsizligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ishonchga bog‘liqdir.

XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani tuzish jarayonlarining yakunlanishi tarixiy voqea bo‘ldi.

Bunda biz ulkan va murakkab tuzilmalarni tuzishga intilmaymiz. Bizga kuchli, suveren va mustaqil davlatlar o‘zaro hurmat, ishonch va sog‘lom pragmatizm asosida hamkorlik qiladigan moslashuvchan va tushunarli format kerak.

Aynan ana shunday yondashuv allaqachon o‘z natijasini berdi. Mintaqamiz xalqaro maydonda ancha ishonchli va sezilarliroq tarzda namoyon bo‘lmoqda. “Markaziy Osiyo plyus” formatlariga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borayotgani, shuningdek, tashqi hamkorlarimiz doirasi doimiy ravishda kengayayotgani ham buni tasdiqlaydi.

Hurmatli hamkasblar!

Bizning yaqinlashuvimiz murakkab bir davrda yuz bermoqda. Dunyo tez o‘zgarmoqda, keskinlik ortmoqda, savdo va transport aloqalari qayta qurilmoqda, yangi xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda o‘z harakatlarimizni yanada yaqinroq muvofiqlashtirish muhimdir.

Biz kelgusidagi birgalikdagi faoliyatimiz uchun muhim, deb hisoblaydigan bir nechta yo‘nalishga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchi. Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlikning navbatdagi bosqichini belgilab olishimiz kerak.

Amalda biz tarixiy, iqtisodiy va transport aloqalariga ega bo‘lgan yagona hamkorlik makonini shakllantirishimiz mumkin. Bugun ularni yanada mustahkamlash va aniq mazmun bilan boyitish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu yerda so‘z mamlakatlarimiz birgalikda savdo, transport, energetika, sanoat va yangi texnologiyalarni rivojlantirishi mumkin bo‘lgan ulkan makon haqida bormoqda.

Ushbu masalalarni biz kelgusi yilda Toshkentda o‘tkazadigan “Tinchlik va barqaror o‘zaro bog‘liqlik yo‘lidagi mintaqalararo muloqot: Markaziy Osiyo yondashuvi” deb nomlangan xalqaro konferensiyada batafsil muhokama qilishni taklif etamiz.

Ikkinchi. Mintaqaviy muloqotimiz quriladigan asosni mustahkamlashimiz kerak.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari faoliyatini tartibga soladigan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirishni taklif etamiz.

Bunda faqat hujjatlar soni o‘z-o‘zidan hech narsani hal qilmaydi. Eng muhimi, qabul qilingan qarorlar bajarilishi va natija berishi kerak.

Uchinchi. Iqtisodiy hamkorlik yangi darajaga ko‘tarilishi kerak.

Biz o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmining o‘sishi bo‘yicha o‘z oldimizga jiddiy maqsadlar qo‘yganmiz. Endi bu o‘sish nimaning hisobiga ta’minlanishini belgilab olish zarur.

Davomi 2-betda



IQTISODIYOTNI YUQORI TEXNOLOGIYA VA MEHNAT UNUMDORLIGI MODELIGA O‘TKAZISH

UCHINCHI MILLIY DASTURNING FALSAFIY-IQTISODIY TAHLILI

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yillik tarixiy shodiyonasida davlatimiz rahbari mamlakatimiz taraqqiyotining yangi sahifasini ochib berdi. Kelgusi o‘n yillik xalqimiz hayotida shunchaki navbatdagi reja davri emas, balki “Milliy yuksalish davri” sifatida muhrlandi. Inson qadrini ulug‘lash, uning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan 7 ta ustuvor milliy dastur e’lon qilindi.

Ushbu strategik arxitektura ichida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalish uchinchi milliy dastur — “Yuqori texnologiyali iqtisodiyot” dasturidir. Mazkur dastur mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy tafakkuri, ishlab chiqarish madaniyati va xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini tubdan o‘zgartiruvchi tarixiy hujjatdir. Prezidentimiz nutqida ta’kidlanganidek: “Uchinchi milliy dastur — iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish. Buning uchun kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 milliard dollarga yetkaziladi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratiladi”.

Bu dastur nafaqat iqtisodiy, balki chuqur falsafiy mazmunga ham ega: u jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari bilan ijtimoiy munosabatlari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni, inson va mehnat mohiyatining yangicha talqinini, shuningdek, taraqqiyot konsepsiyasi o‘zgarishini mujassam etadi.

Davomi 3-betda



O‘ZLIKKA QAYTISH – BUYUK VA O‘ZGARMAS JARAYON

6

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 9-oktabr, 209-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING SAKKIZINCHI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

So‘z, birinchi navbatda, yirik loyihalarni tezroq ishga tushirish imkonini beradigan qo‘shma sanoat va texnologik zanjirlar, umumiy raqamli xizmatlar va investitsiya mexanizmlari haqida bormoqda. Bunda Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 2035-yilgacha mo‘ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dastur muhim o‘rin tutadi. Ushbu hujjat mintaqaning asosiy ustunligi — umumiy geografiyamizdan foydalanishda yordam beradigan amaliy vositaga aylanishi kerak.

Buning uchun savdo-sotiq yo‘lidagi to‘siqlarni izchil bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va qo‘shma loyihalarni ko‘proq ishga tushirish zarur.

Biz bir-birimiz bilan odatdagi savdo-sotiq qilish endi yetarli bo‘lmagan davrga yetib kelganmiz. Birgalikda yakuniy mahsulot yaratish lozim.

“Olti iqtisodiyot — bitta mahsulot” formulasi biz qanday marraga intilishimiz kerak ekanini yaxshi ifodalaydi.

Bir nechta mamlakat korxonalari yagona ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etganida, mahsulotlar birgalikda yaratilganida mamlakatlarimiz iqtisodiyoti o‘rtasida butunlay boshqa — odatiy tovar ayirboshlashga qaraganda ancha mustahkam aloqalar paydo bo‘ladi.

Bu boradagi ishlarni rivojlantirish uchun 2027-yilda qadimiy Xiva shahrida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon biznes forumini o‘tkazishni taklif etamiz.

Ayni paytda qo‘shma investitsiya loyihalarini moliyaviy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus platformani yaratishni muhim, deb hisoblayman. Yirik g‘oyalar ko‘pincha nafaqat investitsiyalarni, balki jiddiy tayyorgarlik, ekspertiza, tushunarli moliyaviy vositalar va qo‘llab-quvvatlashni ham talab qiladi.

Savdo va investitsiyalar vazirlari kengashiga Ashxobodda o‘tkaziladigan navbatdagi majlisda bu masalani atroflicha ko‘rib chiqishni topshirishni taklif etaman.

To‘rtinchi. Mamlakatlarimizni zamonaviy transport va logistika tarmog‘i bilan bog‘lashimiz zarur.

Mintaqamiz global savdoning quruqlikdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biriga va ayni paytda iqtisodiy faollikning yirik markaziga aylanishi mumkin. Ammo buning uchun faqat yo‘l va temir yo‘llar qurishning o‘zi yetarli emas.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha umumiy mantiq zarur. Yo‘nalishlar bir-birini davom ettirishi va yagona tizim sifatida ishlashi uchun yirik loyihalarni o‘zaro muvofiqlashtirish lozim.

Yangi transport yo‘laklari bo‘ylarida ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko‘rsatish obyektlari, sanoat zonalari paydo bo‘lishi kerak. Ana shunda transport yo‘nalishlari o‘z atrofida iqtisodiy tizim yaratadi va ushbu yo‘llar o‘tgan har bir davlatga ancha katta samara keltiradi.

Bunday muvofiqlashtiruv uchun Infratuzilmaviy rivojlanish bo‘yicha kengashni tuzishni tezlashtirishni taklif etamiz. Kengashning birinchi majlisini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyormiz.

Energetika umumiy kun tartibimizda alohida o‘rin tutadi.

Mintaqamiz turli resurslarga ega. Uglevodorodlarning katta zaxiralari va gidroenergetika, quyosh hamda shamol energiyasi bo‘yicha ulkan salohiyat mavjud. Aynan mana shu xilma-xillik mamlakatlarimizga bir-birini to‘ldirish imkonini beradi. Bundan oqilona foydalanib, mintaqada energetikani rivojlantirishga kompleks yondashish zarur.

Bu borada “yashil” energetika tobora katta rol o‘ynaydi.

Kam uglerodli energetika salohiyati bo‘yicha qo‘shma konsepsiyani tayyorlashni taklif etamiz. U yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, energiyani saqlashning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish va yangi energetika yo‘laklarini yaratishni yaxshiroq muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Suv va iqlim masalalari birgalikdagi yechimlarni talab qiladigan yana bir yo‘nalishdir.

Suv resurslari taqchilligi Markaziy Osiyo taraqqiyoti uchun tobora jiddiy to‘siqqa aylanmoqda. Iqlim o‘zgarmoqda, aholi soni o‘smoqda, qishloq xo‘jaligi va infratuzilmaga tushayotgan bosim ortmoqda.

Shuning uchun bizda qancha suv borligi va undan qanday foydalanilayotganini aniqroq tushunib olishimiz zarur. Zamonaviy raqamli monitoring tizimlari, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish kerak.

Bugungi kunda katta suv yo‘qotishlari mintaqamiz uchun juda qimmatga tushmoqda. Aynan shu bois, Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi haqidagi umumiy tashabbusimizni to‘liq amalga oshirish muhim.

Kelgusi yildan boshlab, O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasida raislikni qabul qilib oladi. Biz bu missiyaga katta mas’uliyat sifatida qaraymiz.

Raisligimiz davridan Jamg‘arma ishini yanada samarali tashkil etish, yangi ekologik loyihalarni ishga tushirish va qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilish uchun foydalanish niyatidamiz.

Suv resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha Afg‘oniston bilan muloqotga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu muloqot doimiy va aniq mazmunga ega bo‘lishi, mintaqadagi barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olishi shart.

Havoning ifloslanishi shaharlarimiz uchun eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yaqinda O‘zbekiston “Markaziy Osiyo toza havosi” xalqaro konsorsiumini tashkil etishni taklif etdi. Uning faoliyatini aniq qo‘shma loyiha: mamlakatlarimiz sanoat zonalari, agroklasterlari va transport bog‘lamalarini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish bo‘yicha pilot dasturidan boshlash mumkin. Bu muammoni muhokama qilishdan, atrof-muhitga bosim ayniqsa katta bo‘lgan joylarda amaliy ishga o‘tish imkonini beradi.

Muhim minerallar — ahamiyati tez o‘sib borayotgan yana bir mavzudir.

Mamlakatlarimiz zamonaviy sanoat, energetika va yangi texnologiyalar uchun zarur bo‘lgan xomashyoning katta zaxiralariga ega. Bu borada birgalikda harakat qilishimiz muhim. O‘zbekistonning Muhim minerallar bo‘yicha mintaqaviy alyansni tashkil etish borasidagi tashabbusi bo‘yicha ishlarni faollashtirishni taklif qilamiz.

Markaziy Osiyoning muhim minerallar zaxiralarining yagona raqamli xaritasini yaratish bu borada birinchi qadamlardan biri bo‘lishi mumkin. Bunday resurs mintaqa salohiyati haqida to‘liqroq tasavvur beradi va xalqaro investorlarga mamlakatlarimiz bu yo‘nalishni birgalikda rivojlantirishga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Masalalarning navbatdagi katta bloki texnologik rivojlanish bilan bog‘liq.

Sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash allaqachon sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, davlat boshqaruvini o‘zgartirmoqda.

Mamlakatlarimiz iqtisodiyotining ishlab chiqarish samaradorligi va kelajakda raqobatlasha olish qobiliyati ko‘p jihatdan shu texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli loyihalar ko‘pincha yirik infratuzilmaviy qurilishga qaraganda tezroq natijaga erishish imkonini beradi.

Shu bois, mamlakatlarimiz imkoniyatlarini birlashtirish va Umumiy hisoblash infratuzilmasini yaratishni boshlashni taklif qilamiz. Milliy ma’lumotlar markazlarining o‘zaro bog‘langan tarmog‘i uning asosi bo‘lishi mumkin. Bu hisoblash quvvatlaridan samaraliroq foydalanish, o‘zimizning raqamli mahsulotlarimizni rivojlantirish va sun’iy intellekt sohasida yirik loyihalar uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Biroq faqat infratuzilmaning o‘zi yetarli emas. Biz uchun bir vaqtning o‘zida mutaxassislar, ilmiy tadqiqotlar va kuchli texnologik kompaniyalar kerak. Shu bois, tarmoq uchun kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma dasturlarni ishga tushirish, ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va texnologik tadbirkorlik uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratishni taklif qilamiz.

Va nihoyat, mintaqamiz kelajagi uchun eng muhim masalalardan biri bu — inson resurslari.

Mamlakatlarimiz katta demografik salohiyatga ega. Aholi soni oshmoqda, yoshlar ko‘paymoqda va mintaqa iqtisodiyoti o‘n, yigirma, o‘ttiz yildan keyin qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan aynan ularning ta’limi va kasbiy tayyorgarligi sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu bois, ta’lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamkorligimizda alohida o‘rin egallashi lozim. Biz kelgusida mamlakatlarimiz iqtisodiyotiga qanday mutaxassislar kerak bo‘lishini yaxshiroq tushunib olishimiz kerak. Buning uchun talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqishni taklif qilamiz. Unda bugungi kunda mutaxassislar tanqisligi sezilayotgan va yaqin yillarda talab o‘sib boradigan yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatlarimizning prognoz ma’lumotlarini birlashtirish mumkin.

Bu universitetlar va kasb-hunar ta’limi muassasalariga iqtisodiyotning real ehtiyojlarini oldindan hisobga olish imkonini beradi.

Istiqbolda biz mintaqaning bir nechta mamlakatida bir vaqtning o‘zida amalga oshirilayotgan aniq yirik loyihalar uchun ham kadrlar tayyorlay olamiz. Shu tariqa, ta’lim sanoat, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va boshqa tarmoqlar rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Muhtaram davlat rahbarlari!

So‘nggi yillarda biz ko‘p narsaga erishdik. Endi bu o‘zgarishlarni mustahkamlash va hamkorligimizni kelgusi o‘n yilliklar davomida barqaror qilish muhimdir.

Formula oddiy: taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida birdamlik va ishonch.

Biz kelgusi avlodlarga qanday mintaqa qoldirishimiz uchun javobgarmiz. U tinch, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishi va odamlarga munosib yashash, mehnat qilish, o‘qish hamda farzandlarni voyaga yetkazish imkoniyatlarini berishi kerak.

Ozarbayjonni Maslahat uchrashuviga raislikni qabul qilib olgani bilan tabriklaymiz.

Ishonchimiz komilki, Ozarbayjon rahbarligida formatimiz doirasidagi ishlar qo‘shimcha sur’atga ega bo‘ladi, qardoshlik hamkorligi esa birlik, ishonch va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

So‘zimning yakunida hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga mehmondo‘st Turkmaniston zaminidagi samimiy qabul va uchrashuvimiz ajoyib tashkil etilgani uchun yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING MASLAHAT UCHRASHUVIDA KENG KO‘LAMLI TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

Boshlanishi 1-betda

Ahamiyati tobora ortib borayotgan yana bir yo‘nalish — muhim minerallar. O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Muhim minerallar bo‘yicha mintaqaviy alyansni shakllantirish ishlarini faollashtirish, dastlabki qadamlardan biri sifatida Markaziy Osiyodagi muhim minerallar zaxiralarining yagona raqamli xaritasini yaratish taklif qilindi.

Navbatdagi yirik masalalar majmui texnologik taraqqiyotga bag‘ishlandi.

— Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bilan ishlash sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va davlat boshqaruvini allaqachon o‘zgartirmoqda. Iqtisodiyotlarimizning unumdorligi va kelajakda raqobatlasha olishi ko‘p jihatdan shu texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari imkoniyatlarini birlashtirish va o‘zaro bog‘langan milliy ma’lumotlar markazlari tarmog‘iga asoslanadigan umumiy hisoblash infratuzilmasini yaratishni boshlash taklif etildi.

Odamlar mintaqaning kelajagini belgilovchi eng muhim omil ekani ta’kidlandi.

— Mamlakatlarimiz katta demografik salohiyatga ega. Aholi soni o‘smoqda, yoshlar ko‘paymoqda. O‘n, yigirma, o‘ttiz yildan keyin mintaqa iqtisodiyoti qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan ularning ta’limi va kasbiy tayyorgarligi sifatiga bog‘liq, — dedi davlatimiz rahbari.

Kelgusida mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday mutaxassislar kerak bo‘lishini tahlil qilish asosida talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqish taklif etildi. Unda bugunning o‘zida mutaxassislar yetishmayotgan va yaqin yillarda talab ortishi kutilayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha prognozlarni jamlash nazarda tutilmoqda.

Shu asosda universitetlar va professional ta’lim muassasalari iqtisodiyotning haqiqiy ehtiyojlarini oldindan hisobga olib, sanoat, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va boshqa tarmoqlardagi yirik loyihalar uchun kadrlar tayyorlay oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining yakunida so‘nggi yillarda ko‘p narsaga erishilganini ta’kidladi. Endi bu yutuqlarni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni o‘n yillar davomida barqaror rivojlanadigan tizimga aylantirish muhim.

— Formula oddiy: hamjihatlik va ishonch — taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida. Biz kelgusi avlodlarga qanday mintaqani qoldirishimiz uchun mas’ulmiz. U tinch, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishi, odamlarga munosib yashash, ishlash, o‘qish va farzand tarbiyalash imkoniyatini berishi kerak, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon yetakchilari ham so‘zga chiqdilar. Davlat rahbarlari uchrashuv yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonotni qabul qildilar hamda bir qator ko‘p tomonlama tartibga soluvchi hujjatlarga oid qarorni imzoladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Serdar Berdimuhamedovni Turkmaniston mustaqilligining 35 yilligi hamda Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi samarali raisligi bilan tabrikladi.

O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib bormoqda, “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

O‘zaro savdo hajmini bir necha barobar oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hamda sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi kabi sohalarda Kooperatsiya dasturini qabul qilish va uni ikki mamlakat hududlari darajasida ham amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tuzish to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Mazkur hujjat siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirish hamda ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Avazadagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Armaniston ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda faol aloqalar yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yaqinda ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazildi.

O‘zaro savdo hajmi ortib bormoqda, mamlakatimizda Armaniston sarmoyasi ishtirokida 80 ta korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnov yo‘lga qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligi, zargarlik, yengil sanoat, farmatsevtika, kimyo va turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Bu borada Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va qo‘shma ishbilarmonlik tadbirlarini samarali o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Tomonlar xalqaro ahamiyatga molik masalalar va ko‘p tomonlama tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni ham muhokama qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida tashkil etilgan milliy taomlar festivaliga tashrif buyurdi.

Festivalda to‘qqiz mamlakat — O‘zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmanistonning pazandachilik an’analari namoyish etildi.

O‘zbekiston stendida mehmonlar yurtimizning turli hududlariga xos non va pishiriqlar, qandolat mahsulotlari hamda quritilgan mevalar bilan tanishdilar. Ularga novvoylikning ko‘p asrlik an’analari haqida so‘zlab berildi. Oshpazlar somsaning bir necha turini, shuningdek, shivit oshi va tuxumbarak kabi Xorazm taomlarini tayyorlash, non yopish jarayonlarini namoyish etdilar. O‘zbek palovining turli xillari va milliy oshxonamizning boshqa taomlari ham mehmonlar e’tiboriga havola qilindi.

Ekspozitsiyadan xalq hunarmandchiligi namunalari ham o‘rin oldi. Rishton, Buxoro, Marg‘ilon va Samarqand hunarmandlari o‘z mahsulotlari hamda ularni tayyorlashning an’anaviy usullarini namoyish etdilar. Milliy kuy-qo‘shiqlar va raqslar festivalga bayramona ruh bag‘ishladi.

Delegatsiyalar rahbarlari O‘zbekiston stendi bilan tanishgach, festivalning boshqa milliy ekspozitsiyalarini ko‘zdan kechirdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING MUSHTARAK TARAQQIYOT ARXITEKTURASI VA YEVROOSIYO MARKAZIDA YANGI GEOSTRATEGIK MUVOZANAT

Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan va geosiyosiy qarama-qarshiliklar tobora keskinlashayotgan murakkab dunyoda jahon xaritasining markazida mutlaqo yangi, birdam va izchil rivojlanayotgan mintaqaviy muhit shakllanib bormoqda. Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi ana shu tarixiy transformatsiyaning yaqqol isboti va yangi amaliy bosqichi bo‘ldi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan asos solingan ushbu oliy darajadagi muloqot shakli qisqa vaqt ichida nafaqat yagona geosiyosiy makonni jipslashtirdi, balki Janubiy Kavkazning strategik lokomotivi bo‘lmish Ozarbayjonni ham qamrab olgan muhim va mustaqil markazga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning navbatdagi Maslahat uchrashuvida so‘zlagan konseptual nutqi va ilgari surgan keng ko‘lamli tashabbuslari xalqaro jamoatchilik hamda global tahlilchilar e’tiborini yana bir bor ushbu mintaqaga qaratdi. O‘zbekiston rahbari g‘oyalari “taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida birdamlik va ishonch” formulasi vositasida Yevroosiyoning ushbu yirik hududini jahon iqtisodiyoti va siyosatining ajralmas, raqobatbardosh qismiga aylantirishni maqsad qilgan.

Ushbu pragmatik siyosat va ochiq diplomatiya Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan so‘nggi yillarda tizimli va izchil ravishda amalga oshirilayotgan, qat’iy va uzoqni ko‘zlagan tashqi siyosiy strategiyaning mantiqiy davomidir. Eslash joizki, aynan O‘zbekistonning yangicha ochiqlik va yaxshi qo‘shnichilik kursi sabab mintaqada o‘nlab yillar davomida hal etilmay kelingan chegara, suv-energetika va transport sohasidagi murakkab muammolar tinch muloqot va o‘zaro manfaatlarni hisobga olish yo‘li bilan o‘z yechimini topdi.

Mintaqalararo savdo aylanmasi bir necha barobarga ortdi, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha misli ko‘rilmagan qo‘shma loyihalar ishga tushdi. Shu bilan birga, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va Transafg‘on yo‘lagi kabi muhim transport arteriyalari mintaqani jahon okeanlari va eng yirik bozorlarga bog‘lashda strategik qadam bo‘ldi.

Ana shu sermahsul va amaliy natijalar sharoitida Maslahat uchrashuvida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yangi tashabbuslar mintaqaviy integratsiyani sifat jihatidan mutlaqo yuqori bosqichga olib chiqdi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi istiqbollarini 2027-yil O‘zbekiston poytaxtida “Tinchlik va barqaror o‘zaro bog‘liqlik yo‘lidagi mintaqalararo muloqot: Markaziy Osiyo yondashuvi” deb nomlangan xalqaro konferensiyada batafsil muhokama qilishni taklif etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazni yagona, mustahkam va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va transport-logistika makoniga aylantirish g‘oyasini ilgari surdi. Bu taklif tovarlar, xizmatlar va kapitalning erkin harakatlanishiga to‘siq bo‘layotgan tarif hamda notarif cheklovlarni bosqichma-bosqich bekor qilish, bojxona va tranzit tartib-qoidalarini to‘liq raqamlashtirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan mutlaqo yangi g‘oya — “olti iqtisodiyot — bitta mahsulot” formulasi qardosh davlatlar intilishi lozim bo‘lgan yuksak marra sifatida ta’riflandi.

Ayniqsa, Kaspiy orqali Markaziy Osiyoni Ozarbayjon va Yevropa bilan bog‘laydigan Transkaspiy multimodal marshrutini (“O‘rta koridor”) yanada kengaytirish, ushbu yo‘nalish bo‘ylab zamon talablariga javob beradigan logistika xablarini barpo etish va “yashil” energetika sohasidagi salohiyatni birlashtirishga oid takliflar xalqaro savdo xavfsizligi nuqtai nazaridan juda yuqori baholanmoqda.

Muqobil logistik yo‘laklarga ehtiyoj ortgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyo va Ozarbayjonning mushtarak transport tarmog‘i Yevroosiyoning eng ishonchli va jozibador ko‘prigiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Prezidenti mintaqada mustahkam tinchlik va xavfsizlikni ta’minlamasdan turib, barqaror taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini alohida uqtirdi. Kiberxavflar, terrorizm, ekstremizm va iqlim o‘zgarishi kabi zamonaviy tahdidlarga qarshi muvofiqlashtirilgan jamoaviy kurashish, shuningdek, qo‘shni Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarga chuqurroq jalb etish zarurligi qayd etildi. Bu yondashuv Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi xavf-xatarlarga nisbatan bardoshliligini oshirish va xalqaro maydonda yagona, jipslashgan subyekt sifatida namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Sammitda inson kapitali va kelajak avlod masalasiga ham alohida urg‘u berildi. Aholisi jadal o‘sayotgan va asosiy qismini yoshlar tashkil etadigan ushbu keng mintaqa uchun raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, akademik va madaniy almashinuvlarni kengaytirish, shuningdek, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon yagona turizm makonini shakllantirish bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalar xalqlar o‘rtasidagi tarixiy, ma’naviy va do‘stona rishtalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining nutqi va tashabbuslari negizida kelajak avlodlarga xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli va odamlarga munosib yashash imkoniyatini beradigan makonni barpo etishdek teran bir haqiqat va yuksak mas’uliyat ifoda etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Maslahat uchrashuvida ilgari surgan konseptual tashabbuslari Markaziy Osiyo va Ozarbayjon xalqlarining xalqaro maydondagi mavqeini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan, Yevroosiyoning markazida tinchlik, barqarorlik va umumiy farovonlikni ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shadigan muhim uzoq muddatli “Yo‘l xaritasi”dir.

Sadriddin SUYAROV
“Dunyo” AA

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz.uz_

Uchinchi milliy dastur – iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish.

2026-yil 9-oktabr, 209-son









Buyuk o‘zbek yo‘li

IQTISODIYOTNI YUQORI TEXNOLOGIYA VA MEHNAT UNUMDORLIGI MODELIGA O‘TKAZISH

UCHINCHI MILLIY DASTURNING FALSAFIY-IQTISODIY TAHLILI



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor



Boshlanishi 1-betda

Tarixiy-falsafiy kontekst: texnologik uklad almashinuvi muammosi

Har qanday iqtisodiy islohotning zamirida muayyan falsafiy konsepsiya yotadi. Uzoq yillar davomida rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti ko‘proq arzon ishchi kuchi, tabiiy boyliklar (gaz, paxta, metall) va ekstensiv (son jihatdan kengayish) omillariga tayandi. Ammo XXI asrning uchinchi o‘n yilligida bu model o‘z umrini o‘tab bo‘ldi. Uchinchi milliy dasturning bosh falsafasi oddiy va qat’iy: “Boylik yer ostidan emas, aql va texnologiyadan yaratiladi”. Misollarga murojaat qilaylik. 1 tonna xomashyo paxta yoki qayta ishlanmagan misni sotish emas, undan mikrochip, elektromobil butlovchilari yoki yuqori texnologiyali farmatsevtika mahsuloti tayyorlash qiymat zanjirining yuqori pog‘onasiga ko‘tarilish demakdir. Past maoshli, og‘ir jismoniy mehnatdan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi, avtomatlashgan va intellektual mehnatga o‘tish insonning ijtimoiy maqomini, hayot sifatini va daromadini karrali oshiradi.

Jahon iqtisodiy taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, har bir davr o‘zining yetakchi texnologik ukladiga ega bo‘lganini ko‘ramiz. Sanoat inqiloblari — bug‘ mashinasidan tortib, to raqamli texnologiyalargacha — jamiyat tuzilishini, mehnat taqsimotini, hatto insonning o‘zligini anglash tarzini ham tubdan o‘zgartirgan. Faylasuflar bu jarayonni turlicha baholagan: kimdir ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy munosabatlarni belgilashini ko‘rsatgan bo‘lsa, postindustrial jamiyat nazariyotchilari (D.Bell, E.Toffler) bilim va axborotning asosiy kapitalga aylanishini ta’kidlagan.

Bugungi kunda dunyo to‘rtinchi sanoat inqilobi davrini boshdan kechirmoqda — sun’iy intellekt, robototexnika, katta ma’lumotlar (big data), raqamli platformalar iqtisodiy tizimning markaziy o‘zagiga aylanmoqda. Bu sharoitda mamlakatlarning raqobatbardoshligi endi tabiiy resurslar yoki arzon ishchi kuchi emas, balki intellektual kapital, innovatsion salohiyat va mehnat unumdorligi bilan belgilanmoqda.

Ana shu global tendensiya fonida O‘zbekistonning iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish qarori tasodifiy emas — bu tarixiy zarurat, milliy taraqqiyotning obyektiv mantiqiy davomidir. Inson qadrini yuksaltirish g‘oyasi davlat siyosatining markaziy konsepsiyasi sifatida aynan shu nuqtada iqtisodiy faoliyatning mazmuni bilan tutashadi: chunki inson qadri, avvalo, uning munosib, yuqori unumli va munosib haq to‘lanadigan mehnat bilan bandligida namoyon bo‘ladi.

Mohiyat va asosiy yo‘nalishlar

Prezidentimiz nutqida belgilangan uchinchi milliy dasturning tarkibiy qismlarini, eng avvalo, xorijiy investitsiyalarni jalb etish miqyosi nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Kelgusi o‘n yillikda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan. Bu raqamning ahamiyatini tushunish uchun o‘tgan davr tajribasiga murojaat qilaylik. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40-50 milliard dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda”. Demak, so‘nggi yillarda yillik investitsiya oqimi 15-20 barobar oshgan. Bu tendensiyaning davom ettirilishi va yanada kuchaytirilishi natijasida belgilangan 450 milliard dollarlik ko‘rsatkichga erishish mumkin bo‘ladi. Bu shunchaki miqdoriy ko‘rsatkich emas, balki mamlakatning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi darajasining sifat jihatidan o‘zgarishi demakdir.

Dastur quruq shiorlardan iborat emas, u aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlar va hisob-kitoblarga tayanadi. Unda belgilangan asosiy ko‘rsatkichlar 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, sanoat tarmog‘ida 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratish, kelgusi o‘n yillikda jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 10 ming dollardan yuqori darajaga olib chiqishdan iborat. Bu yerda e’tiborli jihat shundaki, ushbu rejalar oldingi majburiyatlarning bajarilish tajribasiga asoslanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, uch yil oldin 2030-yilga mo‘ljallangan 160 milliard dollarlik YIM vazifasi “global logistikadagi uzilishlar, dunyodagi notinch vaziyatga qaramasdan... shu yilning o‘zida ortig‘i bilan amalga oshiriladi”. Demak, yangi, yanada yuksak marralar real ijro tajribasidan kelib chiqqan holda belgilanmoqda, bu esa strategik rejalashtirish ilmiy asoslanganidan dalolat beradi. Uchinchi milliy dastur iqtisodiy dvigatelni ishga tushirishda uch asosiy tayanch nuqtaga asoslanadi. Birinchisi, startap loyihalar. Endi innovatsiyalar laboratoriyalarda chang bosib yotmaydi. Yoshlarning texnologik g‘oyalarini tijoratlashtirish, inkubatsiya va akseleratsiya markazlari orqali ularni global bozorlarga chiqarish yangi milliy siyosat darajasiga ko‘tarilmoqda. Ikkinchisi, venchur sarmoya. Iqtisodiyotda yuqori texnologiyalar an’anaviy bank kreditlari bilan rivojlanmaydi — bu yerda tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oluvchi venchur fondlar kerak. Davlat va xususiy venchur kapitali birlashib, eng ilg‘or g‘oyalarni millionlab dollarlik texnologik loyihalarga aylantiradi. Uchinchisi, sun’iy intellekt (SI) inqilobi. Bugun SI shunchaki AT soha emas, balki davlat boshqaruvi, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va og‘ir sanoatning samaradorligini belgilovchi bosh quroldir. SI tizimlarini ishlab chiqarish va kundalik xizmatlarga joriy etish mehnat unumdorligini 30-40 foiz oshirishga xizmat qiladi.



Dasturning sifat jihatidan eng muhim qirrasi “yoshlarimizning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanishi”dir. Bu iqtisodiy taraqqiyotning manbaini qayta belgilash demakdir. Agar an’anaviy modelda taraqqiyot manbai asosan kapital va mehnat sarfi hisoblansa, yangi modelda u bilim, ijodkorlik va innovatsiya bilan almashtiriladi. Bu yerda davlatimiz rahbari tomonidan boshqa o‘rinda bildirilgan g‘oya — “AT, sun’iy intellekt, kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlar rivojiga yangi ruh berib... 10 million yoshlarimizni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish” uchinchi milliy dastur bilan uzviy bog‘liqdir. Demak, ta’lim sohasidagi birinchi milliy dastur va iqtisodiy sohadagi uchinchi milliy dastur o‘rtasida ichki mantiqiy uzviylik mavjud: bilimli, malakali inson kapitali yuqori texnologik iqtisodiyotning zaruriy sharti hisoblanadi. Dasturda nazarda tutilgan yana bir muhim jihat “kichik biznes — o‘rta biznesga, o‘rta korxonalar esa yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizimni yo‘lga qo‘yish”dir. Bu yondashuv tadbirkorlik taraqqiyotining tabiiy, organik bosqichlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u hozirgi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan yosh tadbirkorlar salohiyatiga tayanadi.

Zero, bugungi kunda O‘zbekistondagi biznes vakillarining 35 foizini yosh tadbirkorlar tashkil etyapti. Dasturning nomlanishida “mehnat unumdorligi” tushunchasi alohida ta’kidlanishi bejiz emas. Klassik iqtisodiy falsafada mehnat unumdorligi birlik vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmat hajmining oshishi sifatida tushuniladi. Biroq bu tushunchaga faqat texnik-iqtisodiy ma’noda qarash uning chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunini kamsitish bo‘lur edi. Mehnat unumdorligi oshishi aslida uch o‘zaro bog‘liq jarayonni anglatadi. Birinchidan, u insonning mehnat jarayonidagi o‘rnini o‘zgartiradi — oddiy, takrorlanuvchi, past malakali mehnatdan yuqori intellektual, ijodiy mehnatga o‘tishni talab qiladi. Bu ma’noda texnologik taraqqiyot insonni “mexanik bajaruvchi”dan “ijodkor subyekt”ga aylantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, mehnat unumdorligining oshishi ijtimoiy adolat masalasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Yuqori unumli mehnat yuqori daromad demakdir, bu esa aholi farovonligi oshishiga, oqibatda esa kambag‘allik qisqarishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz nutqida keltirilgan raqamlar — kambag‘allik darajasining “2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga” tushganligi — aynan shu bog‘liqlikning amaliy dalilidir.

Uchinchidan, mehnat unumdorligi masalasi milliy o‘zlikni anglash bilan ham bog‘liq. Agar mamlakat faqat xomashyo yetkazib beruvchi yoki arzon ishchi kuchi manbai sifatida qolib ketsa, uning jahon tizimidagi mavqei ikkinchi darajali bo‘lib qolaveradi. Yuqori texnologik modelga o‘tish esa millatning intellektual subyektlik maqomini tiklash, dunyo taraqqiyotiga mustaqil hissa qo‘shish imkoniyatini yaratish demakdir. Prezidentimiz ifodasida bu g‘oya aniq ko‘rsatilgan: “Mening niyatim: O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi zarur”.

Yaqinda davlatimiz rahbarining Orolbo‘yiga tashrifi chog‘ida Qoraqalpog‘istonni “yashil” energetika, intellektual iqtisodiyot va jadal taraqqiyot markaziga aylantirish borasida bildirgan mulohazalari ham uchinchi milliy dasturga uyg‘un desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Mustaqillikning 35 yilligi bayrami tantanalari davom etayotgan shukuhli kunlarda Prezidentimizning Nukus shahrida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan tarixiy yig‘ilishda Orolbo‘yi eli bilan yuzma-yuz, ochiq va samimiy muloqoti so‘nggi yillarda mintaqada amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar nafaqat natija berayotganini, balki Qoraqalpog‘iston bugun butun mamlakatimizning eng tez rivojlanayotgan yetakchi iqtisodiy lokomotivlaridan biriga aylanganini ko‘rsatdi. Qoraqalpog‘istonni iqtisodiy jihatdan oyoqqa turg‘azish maqsadida misli ko‘rilmagan preferensiyalar va soliq imtiyozlari berildi. Foyda, yer va mol-mulk soliqlari 2 barobar, sanoat korxonalari uchun elektr tarifi 15 foiz pasaytirildi, ijtimoiy soliq esa atigi 1 foiz etib belgilandi. Natijada o‘tgan yili hududga 1 milliard 700 million dollar investitsiya kiritildi — bu 2021-yildagiga nisbatan naqd 22 barobar ko‘pdir. Joriy yilning birinchi yarmida Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti 10,2 foiz o‘sish qayd etib, rivojlanish sur’ati bo‘yicha respublikada Toshkent shahridan keyingi faxrli ikkinchi o‘ringa ko‘tarildi. Qoraqalpog‘istonning cheksiz sahrolari va kuchli shamol salohiyati mamlakatimizning energetika mustaqilligiga xizmat qilmoqda. Hududda so‘nggi yillarda 860 MVt. yangi quvvatlar ishga tushirilib, Beruniy va Qorao‘zakdagi shamol stansiyalari hisobiga “yashil” energiya ulushi 23 foizga yetkazildi. Elektr ishlab chiqarish 4 barobar oshib, hudud ehtiyojidan 3 barobar ortdi. Eng muhimi, umumiy qiymati 7 milliard dollar bo‘lgan 47 ta yangi loyiha qurilishiga rasman start berildi. 2030-yilga borib hududda jami 3300 MVt. shamol quvvatlari ishga tushadi va Qoraqalpog‘istonda “yashil” energiya ulushi 76 foizga yetadi. Bu esa mintaqani xalqaro darajadagi toza energiya xabiga aylantiradi.

Mintaqaning geografik izolyatsiyasini buzish va savdo yo‘llarini ochish bo‘yicha ulkan transport loyihalari amalga oshirilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 384 million dollar evaziga A-380 xalqaro avtomagistralining Qo‘ng‘irotdan o‘tgan 240 kilometri to‘liq sifatli beton qoplamaga o‘tkazildi. Endilikda To‘rtko‘l, Ellikqal’a va Beruniydan o‘tgan yana 92 kilometrini qurish boshlandi. Natijada tranzit salohiyati 1,5 barobar oshadi: yuklar To‘rtko‘ldan Qozog‘iston chegarasiga 24 soat emas, atigi 10 soatda yetib boradi. Kelgusi yil mart oyidan boshlab Toshkent — Nukus tezyurar poyezdi qatnay boshlaydi va poytaxtdan Nukusgacha bo‘lgan yo‘l vaqti 16 soatdan 7 soatgacha qisqaradi. To‘yamo‘yin tozalash inshooti rekonstruksiya qilinib, Qo‘ng‘irotdan Mo‘ynoqqacha 100 kilometr yangi ichimlik suv quvuri tortilmoqda.

Qoraqalpog‘iston endilikda nafaqat sanoat va qishloq xo‘jaligi, balki yuqori raqamli texnologiyalar markaziga aylantirilmoqda. Qo‘ng‘irot — Qorao‘zak — Taxiatosh yo‘nalishi hududning “yashil sanoat yo‘lagi” va “intellektual iqtisodiyot uchburchagi” sifatida rivojlantiriladi. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar markazlari uchun tashkil etilgan maxsus zonada umumiy qiymati 8 milliard dollar bo‘lgan 6 ta loyiha amalga oshiriladi. Kelgusi uch yil ichida Nukus, Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatoshda 1,5 ming yuqori daromadli AT va muhandislik ish o‘rni yaratiladi. Bulutli texnologiyalar va SI sohasidagi yillik eksport hajmi 600 million dollarga yetkaziladi. Bundan ko‘zlangan maqsad — islohotlarning bosh mezoni oddiy odamlarning turmush farovonligini yuksaltirishdir.

Nukusdagi tarixiy yig‘ilish ko‘rsatdiki, bir paytlar ekologik fojia va murakkab sharoitlar hududi sifatida qaralgan Qoraqalpog‘iston bugun ulkan bunyodkorlik, investitsiyaviy jozibadorlik va “yashil” texnologik taraqqiyot markaziga aylandi. Prezidentimiz belgilab bergan yangi istiqbollar va milliardlab dollarlik megaloyihalar Qoraqalpog‘iston zaminini nafaqat O‘zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyoning eng qudratli intellektual va industrial maskanlaridan biriga aylantirishi shubhasizdir.

Dasturning boshqa hujjatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Ilmiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan jihat, uchinchi milliy dasturni alohida, izolyatsiyalangan hodisa sifatida emas, balki butun tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zarurligidir. Jumladan, birinchi milliy dastur (bilim va malakani kapitalga aylantirish) yuqori texnologik iqtisodiyot uchun zarur inson kapitalini tayyorlaydi. Texnikumlarda xalqaro standartlarni joriy etish va “yuqori daromadli kasblarga o‘qitish” bevosita uchinchi dasturning kadrlar bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchi milliy dastur (suv va ekologiyaga munosabatni o‘zgartirish) yuqori texnologik taraqqiyot barqarorligini ta’minlaydi, chunki zamonaviy iqtisodiy o‘sish ekologik omillarni inobatga olmasdan uzoq muddatli samara bermaydi. Beshinchi milliy dastur (qonun ustuvorligi) investitsiya muhiti ishonchliligini, tadbirkorlik kafolatlari mustahkamligini ta’minlaydi, bu esa 450 milliard dollarlik investitsiya maqsadiga erishishning zaruriy shartidir. Oltinchi milliy dastur (mahalla — taraqqiyotning asosiy buyurtmachisi) iqtisodiy o‘sish samarasi jamiyatning eng quyi bo‘g‘inigacha yetib borishini, ya’ni taraqqiyotning inklyuziv xususiyatini ta’minlaydi.

Bu o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatadiki, Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan 7 ta milliy dastur mexanik ro‘yxat emas, balki dialektik yaxlitlikka ega bo‘lgan strategik tizimdir, unda har bir qism boshqasini to‘ldiradi va mustahkamlaydi.

Kutilayotgan natijalar va ularning ijtimoiy ahamiyati

Dastur amalga oshirilishi jarayonida kutilayotgan asosiy natijalarni umumlashtirish mumkin. Birinchidan, iqtisodiy ko‘lamning ortishi: YIM hajmining 300 milliard dollarga yetkazilishi mamlakatimizni mintaqada va jahon miqyosida yanada mustahkam iqtisodiy mavqega ega qiladi. Ikkinchidan, mehnat bozorining sifat jihatidan o‘zgarishi: 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi oddiy ish o‘rinlari soni ko‘payishi emas, balki ularning sifat tavsifi tubdan o‘zgarishi demakdir. Uchinchidan, aholi farovonligi yuksalishi: jon boshiga YIMning 10 ming dollardan oshishi bu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekistonning o‘rtadan yuqori daromadli davlatlar toifasidan ancha oldinga siljishini anglatadi. To‘rtinchidan, yoshlar salohiyatining ro‘yobga chiqishi: startap va innovatsion tadbirkorlik orqali yosh avlodga o‘z bilimi va qobiliyatini amalga oshirish uchun keng maydon ochiladi. Beshinchidan, milliy o‘ziga xoslikning mustahkamlanishi: texnologik sohada mustaqil va tashabbuskor mamlakatga aylanish milliy g‘urur va o‘ziga ishonch hissini kuchaytiradi.

Qisqasi, uchinchi milliy dastur — iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish — mohiyatan O‘zbekistonning jahon taraqqiyot tarixidagi yangi bosqichga o‘tish strategiyasidir. Bu dastur orqali davlat nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashni, balki jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlarini, insonning mehnatga munosabatini, millatning o‘zligini anglash tarzini ham tubdan yangilashni maqsad qilgan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: **“Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”.** Mana shu birdamlik g‘oyasi milliy dasturlarning barchasini, jumladan, iqtisodiy taraqqiyot dasturini ham yakka shaxs manfaati emas, balki butun jamiyat, butun millat manfaati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Yuqori texnologiya va yuqori mehnat unumdorligi modeliga o‘tish shunchaki iqtisodiy siyosat yo‘nalishi emas, balki XXI asr sharoitida millat sifatida yashab qolish, rivojlanish va jahon tamadduniga munosib hissa qo‘shish yo‘lidagi tarixiy zarurat va falsafiy tanlovdir. Bu tanlov inson qadrini iqtisodiy taraqqiyotning markaziga qo‘yuvchi davlat siyosatining tabiiy va mantiqiy davomidir.

Yanada aniqroq aytganda, O‘zbekistonning 35 yillik mustaqillik bekatida e’lon qilingan “Yuqori texnologiyali iqtisodiyot” milliy dasturi kelajak avlodlarga qoldiriladigan eng mustahkam poydevordir. Biz nafaqat yangi zavodlar qurmoqdamiz, balki jamiyatimizning tafakkur tarzini yangilamoqdamiz. Ushbu dasturning to‘laqonli amalga oshishi O‘zbekistonni global texnologik poygada shunchaki kuzatuvchi emas, balki mintaqaviy va qit’alararo innovatsion markazga, dunyoning eng raqobatbardosh sanoat makonlaridan biriga aylantirishi shubhasizdir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING MUSTAHKAM KAFOLATI

Davlatimiz rahbari Xalqaro paxta kuni hamda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida hozirgi vaqtda iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi muammolar bilan birga logistika zanjiridagi uzilishlar ham oziq-ovqat narxining oshishiga olib kelayotganini ta’kidladi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytda dunyo bo‘yicha 645 milliondan ortiq odam ochlikdan aziyat chekmoqda. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, 2028-yilda bu raqam 1 milliardga yetishi mumkin.



Jahongir ISAYEV,
“Barqaror rivojlanish markazi” NNT bo‘lim boshlig‘i

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston oziq-ovqat yetishtirish, jumladan, sabzavotchilik uchun katta tabiiy va iqtisodiy salohiyatga ega. Qulay iqlim, dehqonchilik an’analari, katta ichki bozor, mehnat resurslari, bir yilda ikki-uch marta hosil olish imkoniyati yurtimizning bu sohadagi tabiiy ustunligini belgilaydi. Natijalar ham salmoqli.

Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respublikada barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13,7 million tonna sabzavot yetishtirildi. Bu 2024-yildagiga nisbatan 1,2 foiz ko‘p. 2026-yilning birinchi choragida esa issiqxonalarning o‘zidan 102 ming tonna sabzavot olinib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29 foiz o‘sish qayd etildi. Bu raqamlar tarmoqda o‘sish borligini ko‘rsatadi.

Lekin endi masalani faqat yalpi hosil nuqtai nazaridan baholash yetarlimi? Agar ishlab chiqarish hajmi yil sayin ortib borayotgan bo‘lsa, nega bir gektardan olinayotgan sof daromad, mahsulot tannarxi, suv samaradorligi, saqlashdagi yo‘qotishlar va kafolatlangan sotuv darajasi ham tarmoq samaradorligining asosiy mezonlariga aylanmasligi kerak?

Aslida, sabzavotchilikning keyingi taraqqiyot bosqichi aynan shu savolga berilgan javobga bog‘liq. Hosil ko‘payishi hali samaradorlik degani emas. Qishloq xo‘jaligida uzoq yillar “qancha gektarga ekildi?” va “qancha tonna mahsulot olindi?” degan ko‘rsatkichlarga ustuvor ahamiyat berildi. Bu raqamlar, albatta, muhim.

Biroq fermer nuqtai nazaridan natijaning boshqa o‘lchovi ham bor: mahsulot qaysi tannarxda yetishtirildi? Uning qanchasi sotildi? Qanchasi saqlash yoki tashish jarayonida yo‘qotildi? Mavsum yakunida ishlab chiqaruvchining qo‘lida qancha sof daromad qoldi?

Masalan, hosil 20 foiz ko‘payib, bozor narxi 30 foiz tushib ketsa, statistikada o‘sish qayd etiladi, ammo fermerning iqtisodiy ahvoli yaxshilanmasligi mumkin. Shu sababli sabzavotchilikda “ko‘proq yetishtirish” modelidan “samarali va daromadli yetishtirish” modeliga o‘tish vaqti keldi. Buning uchun esa ishlab chiqarish bazasining bir nechta asosiy bo‘g‘ini bir vaqtning o‘zida mustahkamlanishi lozim.

Baraka urug‘dan boshlanadi

Sabzavotchilikning birinchi poydevori — sifatli urug‘. Yuqori hosilli, mahalliy iqlim sharoitiga mos, kasallik va qurg‘oqchilikka chidamli nav fermer uchun har qanday texnologiyadan oldingi asosiy omildir.

Kartoshkachilik misolida oladigan bo‘lsak, bu masalaning naqadar muhimligini ko‘rish mumkin. 2023-yildagi rasmiy tahlilda sohadagi o‘rtacha hosildorlik pastligi, elita va yuqori reproduksiyali urug‘likdan foydalanish imkoniyatlari cheklangani, yuqori sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish uchun maydon, issiqxona va saqlash quvvatlari yetishmasligi, ayrim kasalliklarni aniqlash uchun laboratoriya bazasini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan edi.

So‘nggi yillarda urug‘ sifatini nazorat qilish va raqamlashtirish bo‘yicha muayyan ishlar qilindi. Jumladan, 2026-yilning birinchi choragida urug‘lik va ko‘chatlarga 3 million 750 mingdan ortiq raqamli QR-kodli yorliq berilgan. Shundan 616 mingdan ziyodi sabzavot va poliz ekinlari urug‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu muhim qadam, ammo sifatni nazorat qilishning o‘zi yetarli emas.

Keyingi vazifa — mahalliy seleksiya va urug‘chilikning bozordagi real ulushini oshirish. Ilmiy muassasa, urug‘chilik xo‘jaligi va fermer o‘rtasidagi zanjir natija berishi kerak. Asosiy sabzavot turlari bo‘yicha mahalliy sharoitga mos navlar ulushi, ularning hosildorligi va ishlab chiqaruvchi uchun iqtisodiy samarasi ochiq baholanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi masala — suv. Iqlim o‘zgarishi va suv resurslariga bosim kuchayib borayotgan bir paytda sabzavotchilikni faqat maydonni kengaytirish hisobiga rivojlantirish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun tomchilatib sug‘orish, tuproq namligini aniq hisoblash, suv bilan oziqlantirishni uyg‘unlashtirish, zamonaviy agrotexnika va raqamli monitoring endi alohida ilg‘or tajriba emas, tarmoqning iqtisodiy zaruratiga aylanishi kerak.

Biroq fermerga “suv tejovchi texnologiya joriy et”, deyishning o‘zi kamlik qiladi. Unga texnologiyani tanlash, o‘rnatish va samarali ishlatish uchun agronomik hamda texnik xizmat kerak. Ayniqsa, kichik fermer va dehqon xo‘jaligi har bir masala bo‘yicha alohida mutaxassis yollash imkoniyatiga ega emas. Shu yerda agroservis tizimining sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sabzavotchilik bugun tobora ilmtalab tarmoqqa aylanmoqda. Tuproq tarkibi, urug‘ tanlash, o‘g‘it me’yori, suv berish vaqti, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash, hosilni yig‘ish muddati — bularning har biri yakuniy tannarxga ta’sir qiladi.

Shu bois, har bir sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanda fermer foydalana oladigan amaliy agroservis nuqtasi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Buning uchun yangi byurokratik idora tashkil etish shart emas. Ilmiy muassasalar, agroxizmat markazlari va laboratoriyalarning imkoniyatlarini birlashtirish mumkin.

Bozorni ekishdan oldin o‘rganish shart

Sabzavotchilikdagi eng jiddiy tizimli masalalardan biri — ishlab chiqarish bilan bozor ehtiyoji o‘rtasidagi axborot uzilishi. Fermer bu yil nima ekish haqida qaror qabul qilar ekan, ko‘p hollarda o‘tgan mavsumdagi narx, shaxsiy tajriba yoki atrofidagilarning tanloviga tayanadi.



O‘tgan yili bir mahsulot yaxshi daromad bergan bo‘lsa, keyingi mavsumda uni yetishtirishga qiziqish keskin oshishi mumkin. Ko‘plab ishlab chiqaruvchilar bir xil qaror qabul qilsa, hosil pishganda taklif ortib, narx tushadi. Keyingi yili esa aksincha jarayon kuzatilishi mumkin.

Bu holat bozor iqtisodiyotining tabiiy qismi. Lekin tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarida axborot kechikishining bahosi juda qimmat: fermer zarar ko‘radi, mahsulot nobud bo‘ladi, iste’molchi esa narx tebranishini his qiladi.

Shu ma’noda, 2026-yil mayda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan rasmiy yig‘ilishda tegishli idoralar o‘rtasida yagona ma’lumotlar bazasi shakllanmagani va mahsulotni yetishtirishdan iste’molchigacha kuzatib borish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagani qayd etildi. Demak, muammo ma’lumot yo‘qligida emas, balki ma’lumotning tarqoqligi va fermer qaroriga o‘z vaqtida aylanmasligida.

Buning amaliy yechimi bor. Qishloq xo‘jaligi vazirligi statistika, hududiy ishlab chiqarish rejalari, qayta ishlash korxonalari ehtiyoji, zaxira va savdo ma’lumotlarini birlashtirib, har mavsum oldidan kartoshka, piyoz, sabzi, pomidor va boshqa asosiy 5-7 mahsulot bo‘yicha ochiq talab hamda taklif prognozini e’lon qilishi mumkin.

Bu rejali iqtisodiyotga qaytish emas. Davlat fermerga “shuni ekasan”, demaydi. U “mana bu mahsulot bo‘yicha kutilayotgan talab, mavjud maydon, qayta ishlash ehtiyoji va bozor xavfi shunday” degan axborotni taqdim etadi. Qarorni fermerning o‘zi taxminga emas, ma’lumotga tayanib qabul qiladi.

Ombor bor. Ammo fermer undan foydalana olyaptimi? Hosilni yetishtirish — ishning yarmi. Uni saralash, sovitish, saqlash, qadoqlash, qayta ishlash va o‘z vaqtida sotish imkoniyati bo‘lmasa, mo‘l hosil ham yuqori daromadni kafolatlamaydi. 2026-yil 12-may holatiga ko‘ra, mamlakatda 1,5 million tonna sig‘imga ega saqlash omborlari va 3,5 million tonna mahsulotni qayta ishlash quvvati mavjud. 2026-yil iyulida esa yil yakuniga qadar jami 87 ming tonna sig‘imli yana 340 ta sovitish omborini ishga tushirish vazifasi belgilandi. Bu — katta resurs.

Endi asosiy savol: uning qanchasi samarali ishlayapti? Qaysi tumanda qanday ombor mavjud? Uning bo‘sh quvvati qancha? Qaysi mahsulotni qanday haroratda saqlash mumkin? Xizmat narxi qancha? Qaysi qayta ishlash korxonasiga qanday xomashyo zarur?

Shu ma’lumotlarni qamrab olgan yagona ochiq elektron xarita fermer uchun yangi ombor qurishdan kam ahamiyatli emas. Natijani baholashda ham “qancha quvvat yaratildi?” degan savol bilan cheklanmay, “quvvatning necha foizi ishlatildi va qancha mahsulot yo‘qotilishining oldi olindi?” degan mezonga o‘tish shart.

Mezon — fermer daromadi

Ishlab chiqarishni barqarorlashtirishning yana bir vositasi — shartnomaviy yetishtirish. Fermer mavsum boshlanishidan oldin qayta ishlovchi korxona, eksportchi yoki savdo tarmog‘i bilan mahsulot turi, hajmi, sifati va xarid shartlarini kelishib olsa, uning tavakkal xavfi kamayadi. Xaridor esa kelgusi xomashyo hajmini oldindan rejalashtiradi. Ammo bu mexanizmning ishlashi uchun shartnoma ikki tomon uchun ham haqiqiy kafolat bo‘lishi lozim.

Shu maqsadda asosiy sabzavot turlari uchun soddalashtirilgan namunaviy kontraktlar, mahsulotni qabul qilmaslik yoki yetkazib bermaslik holatlarida tezkor nizo hal qilish tartibi, shuningdek, sug‘urta va qisman oldindan moliyalashtirish mexanizmlarini keng qo‘llash mumkin. Bu fermer uchun “hosilni qayerga sotaman?” degan savolni ekishdan keyin emas, undan oldin hal qilish imkonini beradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari nuqtai nazaridan ham asosiy mezon — fermer daromadi. Bu masala Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan milliy BRM vazifalarida ikkinchi maqsad oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish sifatida belgilangan.

Unda, shuningdek, 2030-yilgacha oziq-ovqat yetishtirish samaradorligi bilan birga ishlab chiqaruvchilar daromadini oshirish, barqaror ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarining genetik xilma-xilligini saqlash, ichki bozorga mahsulot yetkazib berishni tizimli monitoring qilish ham belgilangan. Demak, BRM nuqtai nazaridan ham natijani faqat tonna bilan o‘lchash yetarli emas.

Fermerning daromadi qancha oshdi? Bir gektardan qancha sof foyda olindi? Bir tonna mahsulot uchun qancha suv sarflandi? Hosilning qanchasi saqlash va tashish jarayonida yo‘qotildi? Qanchasi qayta ishlanib, qo‘shimcha qiymat yaratdi? Ana shular sabzavotchilikning haqiqiy barqarorligini ko‘rsatadi.

Yettita muhim qadam

Sohadagi muammolarni hal etish uchun yangi yirik idora tuzish yoki ma’muriy rejalashtirishni tiklash shart emas. Mavjud tuzilma va ma’lumotlarni yagona natijaga yo‘naltirishning o‘zi katta o‘zgarish berishi mumkin.

Birinchidan, sabzavotchilikka ixtisoslashgan har bir hudud uchun ishlab chiqarish pasportini shakllantirish zarur. Xususan, yer va suv imkoniyati, asosiy ekinlar, o‘rtacha hosildorlik, urug‘ga ehtiyoj, ombor, qayta ishlash va sotuv kanallari yagona hujjatda aks ettirilishi lozim.

Ikkinchidan, asosiy 5-7 ta mahsulot bo‘yicha ekish mavsumi oldidan talab-taklif prognozini ochiq e’lon qilish. Buning uchun yangi statistika to‘plash emas, idoralarning bor ma’lumotini birlashtirish kifoya.

Uchinchidan, mahalliy seleksiya va urug‘chilik bo‘yicha aniq natija mezonlarini belgilash: sertifikatlangan urug‘ bilan qamrov, hosildorlikka ta’sir va fermer tannarxidagi o‘zgarish.

To‘rtinchidan, ixtisoslashgan tumanlardagi muassasalar kesimida fermerga tuproq, suv, oziqlantirish va o‘simlik kasalliklari bo‘yicha tezkor xizmat ko‘rsatadigan agroservis nuqtalarini ko‘paytirish.

Beshinchidan, saqlash omborlari va qayta ishlash korxonalarining joylashuvi, bo‘sh quvvati va xizmat shartlarini ko‘rsatadigan ochiq elektron bazani ishga tushirish.

Oltinchidan, qayta ishlovchi va savdo tarmoqlari bilan kontrakt asosida yetishtirish ulushini oshirish, namunaviy shartnoma va nizolarni tez hal qilish mexanizmini joriy etish.

Yettinchidan, hudud va tarmoq rahbarlari faoliyatini faqat yalpi hosil bilan emas, hosildorlik, tannarx, fermerning sof daromadi, mahsulot yo‘qotilishi va suv samaradorligi bo‘yicha ham baholash.

Bu takliflarning muhim jihati shundaki, ular katta ma’muriy islohot emas, mavjud tizimning ishlash mantig‘ini o‘zgartirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda sabzavotchilik uchun imkoniyat katta. Masala endi bu salohiyatning mavjudligini isbotlashda emas, balki uni barqaror daromad va raqobatbardosh ishlab chiqarishga aylantirishda. Buning uchun sifatli mahalliy urug‘ zarur. Suvdan tejamkor foydalanish lozim. Ilm va agroservis fermerga yetib borishi kerak. Fermer bozor talabini ekishdan oldin bilishi shart. Qolaversa, yetishtirilgan mahsulotni saqlash va qayta ishlash tizimi ishlab turishi darkor.

Eng muhimi, sohaning muvaffaqiyati “qancha tonna hosil oldik?” degan birgina savol bilan emas, “fermer qancha daromad oldi va shu natijani kelasi yili ham takrorlay oladimi?” degan mezon bilan baholanishi lozim. Shunda sabzavotchilikdagi o‘sish raqamlardagi mavsumiy natija bo‘lib qolmaydi. U urug‘dan bozorgacha bo‘lgan yaxlit zanjirga, fermer manfaatiga va zamonaviy texnologiyaga tayangan barqaror tizimga aylanadi.

SHINJON TAJRIBASI: HOSILDORLIK OSHIB, XARAJAT QISQARDI

Farg‘ona viloyatida paxta yig‘im-terimi qizg‘in pallaga kirdi. Mavsum avvalgilaridan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Endi aksariyat paxta dalalariga hasharchi-terimchilar emas, balki paxta terish mashinalari jalb etildi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligidagi hayotbaxsh islohotlar tufayli sohaga ilm-fan, yangi texnika va texnologiyalar kirib keldi. Dehqonlar manfaatdorligi oshdi. Chigit ekish, parvarishlash agrotexnikasi o‘zgardi. Istiqbolli yangi xorijiy paxta navlari ekila boshladi. Natijada yuqori hosil olish, xomashyo sifatini oshirish imkoniyati kengaydi.

Jumladan, Yozyovon tumanidagi “Mezon“ fermer xo‘jaligida ham Shinjon tajribasi asosida 115 gektar yerda qo‘shqator, plyonka ostida tomchilatib sug‘orish tizimiga asoslangan usulda paxta yetishtirildi. Hosil mo‘lligidan darak berib turgan paxtazorga qarab ko‘z quvnaydi. Aytishlaricha, shu kungacha Markaziy Farg‘ona yeridan, nari borsa, 25 sentnerdan hosil olingan. Sohaga ilm-fan, yangi nav va texnologiyalar joriy etilgach, hosildorlik uch hissa oshdi.

— Avvallari shuncha maydondagi hosilni terib olish uchun 500 ga yaqin terimchi, ortiqcha vaqt, mablag‘ talab etilardi, — deydi fermer Vohidjon Obidov. — Endi hosilni mashinalar yordamida terib olyapmiz. Bu qo‘lda terilganga nisbatan ancha samarali. Masalan, bir gektardagi hosilni qo‘lda terib olish uchun o‘rta hisobda 20 million so‘m talab etiladi. Mashinalar yordami bilan esa 5 million so‘m atrofida bo‘ladi. Qolaversa, bitta terim mashinasi bilan kun davomida 8-10 gektar maydondagi hosilni yig‘ishtirib olish imkoniyati bor. Bu ko‘rsatkich 115 gektar maydonga nisbatan olinganda manfaatdorlik salmog‘ini chamalash qiyin emas. Dastlabki natijalarimiz quvonarli. Gektaridan 80 sentnerdan hosil olyapmiz. Bu — mavsumda 5 milliard so‘mdan ziyod daromad olish degani. Mavsum oldidan lizing asosida zamonaviy paxta terish mashinalarini xarid qildik. Bugunga qadar umumiy qiymati 20 milliard so‘mlik zamonaviy texnika parkini tashkil etganmiz. Bu ehtiyojimizdan ortib, boshqa fermerlarga xizmat ko‘rsatish orqali qo‘shimcha daromad topish imkonini ham beryapti.

Xo‘jalikning ekin yeri shu paytga qadar suv nasosi yordamida sug‘orilgan. Bu elektr energiyasi uchun katta xarajat, ortiqcha ishchi kuchi talab qilardi. Yangi mavsumda quyosh panellaridan foydalanildi. Natijada suv yetkazib berish bilan bog‘liq chiqim miqdori 150 million so‘mga kamaydi.

— Bu yil 172 gektar maydonda yangi texnologiya asosida mahalliy “S-6775” navli paxta yetishtirdik, — deydi “Far Zulfiqor” fermer xo‘jaligi ish yurituvchisi Kiborjon Yoqubov. — Qo‘shqator usulida, plyonka ostida pnevmatik seyalka bilan donalab chigit ekish hisobiga har gektardan 20-25 kilogramm urug‘lik chigit iqtisod qilindi. Plyonka to‘shamasi germetik yopilishi tufayli begona o‘t bosmaydi, chopiq qilishga ehtiyoj qolmaydi. Natijada texnika, yonilg‘i-moylash materiallari va qo‘l mehnati uchun sarflanadigan mablag‘ tejab qolinmoqda. Tomchilatib sug‘orish evaziga suv sarfi sezilarli kamaydi. Mineral o‘g‘it tejaldi. Ochiq maydonda ekilgan paxtaga nisbatan 10-15 kun erta yetildi.

Bu yil Farg‘ona viloyatida 72 ming gektar yerda paxta yetishtirildi. Hosilni qisqa muddatda terib olish uchun 300 dan ortiq terim mashinasi jalb etilgan.

— Joriy mavsumda 62 ming gektar maydonga Xitoydan keltirilgan g‘o‘za navlari hamda 23 ming gektarda Shinjon texnologiyasi asosida plyonka ostida hosil yetishtirildi, — deydi Farg‘ona viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Alibek Tursunov. — Xorij navlari bilan birga, “S-8290”, “Ravnaq-2”, “S-6775”, “Namangan-77” singari mahalliy navlar ham yangi texnologiya asosida parvarishlandi. Bu ishlar uchun 173 ta yuqori unumli chigit ekish mexanizmi olib kelingan. Yangi seyalkalar tejamkorligi va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ular chigit ekish bilan birga ekin maydonlarini azotli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, plyonka ostiga tomchilatib sug‘orish qurilmalarini yotqizish kabi xususiyatlarga ega.

Farg‘ona shahrida Xitoyning “Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co. Ltd” kompaniyasi bilan paxta terish agregatlari yig‘ish, servis ko‘rsatish, mexanizatorlar uchun o‘quv markazi tashkil etildi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan terim agregatlariga talab yildan yilga ortib bormoqda. Sababi, ish unumdorligi yuqori, tezkor va boshqarishga qulay. Terim agregatlari 20 foizli dastlabki to‘lov bilan 10 yil muddatga lizing va 15 foizli subsidiya asosida yetkazib berilyapti.

Dehqonning yelkasiga oftob tegdi. Paxta hosildorligini oshirish borasidagi istiqbolli loyihalar nafaqat xomashyo yetishtirish, balki qo‘shilgan qiymat zanjiri yaratish va yangi ish o‘rinlari ochish imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Fikrimizni keyingi o‘n yilda Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida 2435 ta istiqbolli loyiha amalga oshirilib, 2,1 milliard dollarlik mahsulot eksport qilingani ham tasdiqlaydi.



Rahmatilla SHODMONOV olgan surat.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Aks sado

SO‘ZGA HURMAT — BARCHAMIZGA DAXLDOR

Axborot asrining imkoniyatlari shu qadar kengayib ketdiki, bundan hayratlanmay ilojingiz yo‘q. Virtual olam insoniyatni tobora o‘z domiga tortib bormoqda: ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar bu olamning asosi, tub zaminiga aylanib ulgurdi.



Shahlo G‘ANIYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Axborot almashinuvi uchun bir necha soniya kifoya. Yozishmalar jadallik bilan bir insondan ikkinchisiga yetib boradi. Ammo yozuvlarga bir ko‘z tashlang-a! Adabiy til normalariga umuman rioya qilinmaydi. So‘zlarni qisqartirib yozish, imloviy xatolarga to‘la jumlalar kishining g‘ashiga tegadi. So‘zlarning ataylab qisqartirilishi, lotin va kirill harflarining aralash qo‘llanishi, noto‘g‘ri yoziladigan poyintar-soyintar jumlalar, tinish belgilari qo‘yilmasligi — bularning qaysi birini sanaylik?

YouTube platformasiga joylanayotgan videolar har kuni qanchadan-qancha ko‘rilishlar yig‘adi va ularning ostida munosabat tariqasida yozilgan gaplarni o‘qiysiz. Ijtimoiy tarmoqlarda munosabat bildiradiganlar ko‘p. Ammo ularning yozuvlariga ko‘z yugurtirsangiz, g‘ij-g‘ij xatolarga ko‘zingiz tushadi. Na imlo qoidalariga, na jumlalarning uslubiy qurilishiga, na tinish belgilariga e’tibor berilmasdan yozilgan bunday izohlar son-sanoqsiz.

Yig‘ilishlarda “Til — millat ko‘zgusi, uning tarixi, xotirasi, ma’naviyati va milliy o‘zligini ifoda etuvchi buyuk qadriyatdir”, deb ko‘p gapiramiz. Insonning o‘z tiliga munosabati uning tafakkuri, dunyoqarashi, madaniy va ma’naviy saviyasi bilan o‘lchanadi. Har bir xalqning tarixi, urf-odatlari, orzu-intilishlari va milliy ruhi uning ona tili orqali namoyon bo‘lar ekan, nima uchun biz xato yozish “urf”i qurboniga aylanishimiz kerak?

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizni tubdan o‘zgartirib, ko‘plab mushkullarimizni oson qilmoqda. Buning afzalliklarini, albatta, tan olishga majburmiz. Lekin “Biz texnika asrida yashayapmiz, til masalasi biz uchun ikkinchi darajali”, deyishga ham hech kimning haqqi yo‘q.

Messenjerdagi oddiy yozishmada yo‘l qo‘yilgan har bir imlo xatosini fojia sifatida qabul qilish shart emas deydiganlarning fikriga esa umuman qo‘shilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda davlat tiliga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish kerak. Chunki har birimiz har kuni raqamli tarmoqlardan foydalanamiz. Zero, til — tirik hodisa. U doimo rivojlanadi, boyiydi, yangi tushuncha va atamalar bilan to‘ldirib boriladi. Ayrim so‘zlar esa vaqt o‘tishi bilan iste’moldan chiqib ketadi.

Internet tilini butunlay salbiy hodisa deb baholab bo‘lmaydi. U zamonaviy muloqotning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tilning yangi imkoniyatlarini ham namoyon etmoqda. Muammo internetda yangi so‘zlar paydo bo‘layotganida emas, balki ona tilimizga noto‘g‘ri munosabat shakllanishi va imlo qoidalariga beparvolik salbiy odatga aylanib borayotganidadir.

Bizdan keyingi avlod nima qiladi, shu haqda o‘ylab ko‘ramizmi? Bizdan nima qolsa, ularga shu meros bo‘lib o‘tadi: matnmi, yozuvmi, elektron hujjatmi yoki tasvirmi — barchasini bor holicha qabul qiladi. Agar biz xato yozishdan andisha qilmasak va bunga odatlanib qolsak, kelajak avlodga g‘ij-g‘ij xatolardan iborat “yozuv madaniyati”ni meros qilib qoldiramizmi? Axir yozgan matniga qarab, insonning so‘z boyligi, fikrlash tarzi, bilim darajasi va savodxonligi haqida muayyan xulosaga kelish mumkin.

Ona tilimizni asrash faqatgina tilshunoslar, filologlar yoki o‘qituvchilarning vazifasi emas. Bu — har birimizga daxldor mas’uliyat. Xabar yozayotganda ham, fikr bildirayotganda ham, reklama yoki e’lon tayyorlayotganda ham so‘zga hurmat bilan qaraylik. So‘zlarni qisqartirib yozishdan qochaylik. Zero, bexato imlo asl yuzimizni, saviyamiz qandayligini va savodxonlik darajamizni ko‘rsatib beradi.



Ona tilimizni asrash faqatgina tilshunoslar, filologlar yoki o‘qituvchilarning vazifasi emas. Bu — har birimizga daxldor mas’uliyat. Xabar yozayotganda ham, fikr bildirayotganda ham, reklama yoki e’lon tayyorlayotganda ham so‘zga hurmat bilan qaraylik.

Tayanch nuqta

IMKONIYAT VA IMTIYOZLARGA FIDOYILIK BILAN JAVOB BERAMIZ

Prezidentimiz 30-sentabrda ustoz va murabbiylar bilan uchrashdi. Ana shu tarixiy voqeani umrining 45 yilini yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan muallim sifatida kuchli hayajon va faxr bilan kuzatdim. Uchrashuvda aytilgan fikrlar, keltirilgan raqamlar va ilgari surilgan yangi tashabbuslar har bir o‘qituvchi qalbidan joy oldi. Qalbim tubidan bodrab chiqayotgan quvonch, faxr, shukronalik onlari qo‘limga qalam ushlashga undadi.





Hamidjon RAHIMOV,
Oltiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi

Mamlakatimiz yetakchisining “O‘qituvchi — mehr daryosi, o‘qituvchi — ezgulik bulog‘i, o‘qituvchi — ma’rifat quyoshi!”, degan so‘zlari har bir pedagog qalbida yuksak tuyg‘ularni uyg‘otdi. Daxldorlik hissini oshirdi. Ayniqsa, bugun sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar inson hayotini jadal o‘zgartirayotgan bir paytda davlatimiz rahbari hech bir texnologiya bolaning qalbiga ustozdek yo‘l topib, unga Vatanga muhabbat va mas’uliyat tuyg‘usini singdira olmasligini ta’kidlagani o‘qituvchi mehnati qanchalik qadrli ekanini ko‘rsatadi.

Bolalarimiz paxta dalasidan maktab partasiga, o‘qituvchilar ta’lim jarayoniga qaytarilgani haqidagi gaplar ortida katta hayotiy haqiqat mujassam. O‘qituvchining oylik maoshi kam edi. Shu ham o‘z vaqtida berilmasdi. Boz ustiga, erta bahordan kech kuzgacha daladan chiqmasdi. Ha, o‘qituvchilar eng kamsitilgan kasb egasi edi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ilk kunlaridanoq ustozlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim-tarbiya sifat va samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Ta’limdagi manzara tubdan o‘zgardi. Buni raqamlar ham aniq ko‘rsatib turibdi. Masalan, keyingi o‘n yilda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘chalar va 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etilib, 10 mingdan ziyod ta’lim muassasasi zamonaviy ko‘rinishga keltirildi. Yarim asr maktabda ishlayotgan o‘qituvchi sifatida bunday o‘zgarishlar qadrini juda yaxshi his qilaman.

Uchrashuvda o‘qitish mazmuni va sifati alohida tilga olindi. Bu nihoyatda muhim yondashuv. Chunki maktab faqat chiroyli binodan iborat emas. U bilim va tarbiya, tafakkur, ustoz va shogird o‘rtasidagi ma’naviy rishta bog‘lanadigan strategik hudud bo‘lishi kerak. Bu jarayonlar o‘zim mehnat qilayotgan Oltiariq tumani ixtisoslashtirilgan maktabi faoliyatida ham namoyon bo‘lmoqda. Avvalo, ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon deb qabul qildik. Ta’lim orqali aql va bilimni boyitish, tarbiya orqali esa odob-axloq va ma’naviyatini shakllantirishga urinyapmiz. Natijada o‘quvchilarimiz turli olimpiadalarda, milliy va xalqaro tanlovlarda munosib ishtirok etmoqda. Maktabimiz 2021-yilda “Zamonaviy maktab” maqomiga ega bo‘ldi. “Eng yaxshi xorijiy tilni o‘qitadigan maktab” tanlovining tuman va viloyat bosqichi g‘oliblari qatoridan joy oldi. 2024-2025-o‘quv yilida 41 bitiruvchimiz yuz foizli natija bilan oliy ta’lim muassasalariga qabul qilindi. Bular yaratib berilgan katta imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan ustozlarimiz mehnatining amaliy mahsuli, bolalarga faqat ma’lumot berish bilan cheklanmay, ularni mustaqil fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan yondashuvlar mevasi.

O‘qituvchi o‘z ustida ishlasa, malakasini oshirsa, natija ko‘rsatsa, mehnati rag‘batlantirilyapti. Menimcha, yoshlar uchun o‘qituvchilik kasbining jozibadorligini oshirishda bu yondashuv katta ahamiyatga ega. 30-sentabr kuni ilgari surilgan yangi tashabbuslar pedagoglarga yaratiladigan imkoniyatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lash, har yili 208 ta tuman va shahardagi yetakchi muallimlarni mukofotlash, ming nafar pedagogni har yili xorijga stajirovkaga yuborish, olimpiada g‘oliblarini tayyorlagan ustozlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy malaka toifasini berish belgilandi. Shuningdek, yangi o‘quv yilidan 100 ta maktabda matematika, informatika va tabiiy fanlarni ayrim sinflarda to‘liq ingliz tilida o‘qitish, mazkur loyihadagi pedagoglarga 100 foiz ustama belgilash ko‘zda tutilmoqda. Bunday imkoniyatlar o‘qituvchini izlanishga, til o‘rganishga, o‘z malakasini oshirishga undaydi.

Yana bir diqqatga sazovor tashabbus o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida majburiy bir oylik kurslar o‘rniga kasbiy rivojlanish vaucherlari joriy qilinishi bo‘ldi. Yangi tartibga ko‘ra, pedagog o‘z ehtiyoji va natijasiga qarab, 18 soatdan 72 soatgacha bo‘lgan o‘quv dasturini o‘zi tanlaydi. Men ko‘p yillar ta’lim tizimida ishlagan pedagog sifatida bu yondashuvni alohida ahamiyatli deb bilaman. Chunki har bir o‘qituvchining ehtiyoji har xil. Kimgadir axborot texnologiyalari kerak, boshqasiga zamonaviy pedagogik metodika, boshqa biriga esa chet til yoki o‘z fanining yangi yo‘nalishlari zarur. Muallimga o‘z kasbiy rivojlanish yo‘nalishini tanlash imkoni berilishi uning mas’uliyatini ham oshiradi.

Uchrashuvda ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi ilg‘or pedagoglar uchun Abdulla Avloniy nomidagi alohida davlat mukofotini ta’sis etish taklif qilingani katta ramziy va ma’naviy ahamiyatga ega. Ustozlar uchun alohida davlat mukofoti ta’sis etilishi ma’rifatparvar ajdodlarimizning orzu-maqsadlari va yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining ma’naviy uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Bir narsani yaxshi anglayman: ta’limda erishilgan har qanday natija markazida o‘qituvchi turadi. Maktab qurish, eng zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, yaxshi darsliklarni olib kelish mumkin, lekin sinfga o‘z kasbini sevadigan, bola qalbiga yo‘l topa oladigan, bilimli va fidoyi muallim kirmasa, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, Prezidentimizning “Ustozni e’zozlash bir kasb egasini emas, butun bir millat kelajagini e’zozlash deganidir”, degan fikri tarixiy uchrashuvning eng muhim g‘oyalaridan biri bo‘ldi. Bu har birimizning zimmamizga mas’uliyat yuklaydi. Davlat ta’limga sharoit yaratayotgan ekan, pedagog unga bilim va fidoyilik bilan javob berishi kerak. Ustozga e’tibor ortgan ekan, ustoz ham o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashi, izlanishi, shu nomga munosib bo‘lishi shart. Imkoniyatlar kengaygan ekan, natija ham shunga yarasha bo‘lishi zarur.

Ishonchim komil, ustoz qadrlangan, ilm ulug‘langan va ta’lim davlat siyosati darajasida ustuvor yurtda taraqqiyotning poydevori hamisha mustahkam bo‘ladi.



TIL BILGAN INSON YURTINI DUNYOGA NAMOYON ETA OLADI

“Bugun dunyoda bir-biridan uzoqda joylashgan xalqlarni nima yaqinlashtiryapti?” degan savolga turlicha javob berish mumkin. Texnologiya, internet, sayohat, ta’lim, iqtisodiy aloqalar... Ammo bularning barchasini bog‘lab turadigan eng muhim vositalardan biri — til. Ayniqsa, ingliz tili bugungi global muloqotning muhim vositasiga aylangan. Dunyo bir-biri bilan aynan shu tilda fikr almashmoqda, olimlar ilmiy izlanishlarini shu tilda taqdim etmoqda, talabalar xorijiy universitetlarda ta’lim olmoqda, tadbirkorlar xalqaro hamkorlik o‘rnatmoqda.



Charos HAMROYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: biz ingliz tilini faqat dunyoni bilish uchun o‘rganamizmi yoki dunyoga o‘zimizni tanitish uchun ham undan foydalana olamizmi? Menimcha, bugungi yoshlar oldida turgan muhim vazifalardan biri ingliz tilini o‘z milliy madaniyatimizni dunyoga tanitish vositasiga aylantirishdir.

Chet tilni o‘rganish haqida gap ketganda, ko‘pincha “ingliz tilini bilsam, yaxshi ish topaman”, “xorijda o‘qiyman”, “xalqaro imtihondan yuqori ball olaman” degan maqsadlar tilga olinadi. Albatta, bular juda muhim. Lekin til bilishning bundan-da katta imkoniyati bor.

Tasavvur qiling: xorijlik sayyoh Registon maydonini tomosha qilib, yonidagi yosh o‘zbekdan bu maskan haqida so‘radi. U ingliz tilini yaxshi biladi. Ammo u faqat “This is Registan. It is very old”, deyish bilan cheklanib qolsa, suhbat imkoniyati boy beriladi. Agar u Registonning tarixi, bu yerda ilm-fan va madaniyat rivojlangan davrlar, Mirzo Ulug‘bek, madrasalar, me’moriy bezaklarning o‘ziga xosligi haqida sodda va ravon ingliz tilida gapirib bera olsa-chi? Shunda ingliz tili shunchaki xorijiy til bo‘lib qolmaydi. U milliy merosimizni dunyoga olib chiqadigan ko‘prikka aylanadi. Bugun bizga ana shunday yoshlar kerak.

O‘zbekistonga kelgan sayyoh mamlakatimiz haqida kitobdan, internetdan yoki gid orqali ma’lumot olishi mumkin. Ammo uning o‘zbek xalqi haqidagi eng yorqin taassuroti ko‘pincha oddiy insonlar bilan muloqot jarayonida shakllanadi.

Mehmonni kutib olayotgan mezbon, aeroportdagi xodim, mehmonxonadagi administrator, muzeydagi gid, universitet talabasi yoki ko‘chada yo‘l ko‘rsatayotgan yosh — ularning har biri muayyan ma’noda mamlakatimizning “jonli vakili”. Demak, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish emas. Bu o‘z yurtingiz haqida boshqalarga to‘g‘ri, chiroyli va ta’sirchan gapira olish qobiliyati hamdir.

Masalan, “mahalla” so‘zini ingliz tilida qanday tushuntiramiz? Uni shunchaki “neighborhood” deb tarjima qilish bilan mazmun to‘liq ochilmaydi. Chunki mahalla bizda faqat geografik hudud emas. Unda qo‘ni-qo‘shnichilik, hamjihatlik, o‘zaro yordam, marosimlar, ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalar mujassam.

Xuddi shuningdek, hashar, mehmondo‘stlik, beshik to‘yi, Navro‘z, mahalla kabi tushunchalar ortida ham oddiy tarjimadan ancha keng madaniy mazmun bor.

Ana shu ma’nolarni tushuntira olish til bilishning yuqori bosqichidir. Palovni tarjima qilish oson, uning ma’nosini-chi? Bir qarashda bu oddiy savoldek tuyuladi.

O‘zbek palovini ingliz tilida “plov” yoki “pilaf” deyish mumkin. Lekin palovning o‘zbek hayotidagi o‘rnini bitta so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Palov — dasturxondagi taom bo‘lish bilan birga mehmondo‘stlik, bayram, oilaviy yig‘in, to‘y, do‘stlik va hamjihatlik bilan bog‘liq tushuncha.

Non ham kundalik hayotimizda oddiy oziq-ovqat mahsulotidan ko‘ra kengroq ma’noga ega. Nonni qadrlash, uni yerga tashlamaslik, dasturxonga hurmat bilan qo‘yish kabi qarashlar xalqimiz qadriyatlari bilan bog‘liq. Demak, boshqa tilga so‘zlarni tarjima qilishning o‘zi yetarli emas. Madaniy ma’noni ham tarjima qilish kerak. Bu esa til o‘rganuvchidan nafaqat lug‘at boyligini, balki o‘z madaniyatini chuqur bilishni ham talab qiladi. Dunyo tilini o‘rganib, o‘z tilimizni unutmasligimiz kerak.

Ba’zan chet tilni o‘rganayotgan yoshlar “ingliz tilida yaxshi gapirish uchun inglizcha fikrlash kerak” degan qarashni ilgari suradi. Bunda jon bor. Biroq boshqa bir jihatni ham unutmaslik kerak: dunyo tilini o‘rganish o‘zligimizdan uzoqlashish degani emas. Aksincha, inson o‘z madaniyatini qanchalik yaxshi bilsa, uni boshqa tilda shunchalik mazmunli tushuntira oladi. Ingliz tilida “hospitality” so‘zini bilish bir masala. O‘zbek mehmondo‘stligining mazmunini shu so‘z yordamida xorijlikka tushuntirib bera olish esa boshqa masala.

“Respect” so‘zini bilish oson. Ammo bizdagi kattaga hurmat, kichikka izzat tushunchalarining oiladagi va jamiyatdagi o‘rnini tushuntirish uchun hayotiy misollar kerak. Shuning uchun xorijiy til ta’limida “Men ingliz tilida o‘zbek madaniyati haqida nima deya olaman?” degan savol ham muhim o‘rin egallashi kerak. Bugungi ta’lim jarayonida ingliz tili darslarini yanada hayotiy qilish imkoniyatlari ko‘p.

Hozirgi yoshlarning imkoniyatlari avvalgi avlodnikidan tubdan farq qiladi. Ular YouTube orqali dunyoni ko‘radi, xalqaro platformalarda muloqot qiladi, xorijlik talabalar bilan tanishadi, onlayn kurslarda, xalqaro loyihalarda ishtirok etadi.

Birgina telefon orqali O‘zbekiston haqida dunyoning istalgan nuqtasidagi insonga ma’lumot berish mumkin. Demak, bugungi yosh faqat o‘z mamlakatining fuqarosi emas, u muayyan ma’noda milliy madaniyatning raqamli vakili hamdir.

Samarqandning ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan manzarasi, o‘zbek milliy taomi haqida inglizcha post, Navro‘z bayrami haqida tayyorlangan qisqa video yoki Shahrisabzning tarixiy obidalari haqida xorijiy tildagi maqola — bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro axborot maydonidagi kichik, ammo muhim taqdimotidir. Shunday ekan, yoshlarimizga “Chet tilni o‘rganing”, deyish bilan birga, “Chet tilda O‘zbekiston haqida gapiring”, deyish ham kerak. Aslida, o‘zimizni boshqalarga tanitishdan oldin o‘zimizni anglashimiz kerak. Bir haqiqat bor: inson o‘z tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini yaxshi bilmasa, ularni o‘zga til orqali boshqalarga to‘laqonli tushuntira olmaydi. Shu bois, xorijiy til ta’limi milliy madaniyat ta’limi bilan uyg‘unlashishi lozim. Talaba qadimiy va zamonaviy shaharlarimiz tarixini o‘rganishi, obidalarimiz haqida bilishi, madaniy merosimizni anglashi, o‘zbek adabiyoti va san’ati haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Keyin esa ana shu bilimlarini chet tilda ifodalashga harakat qilishi zarur. Bu jarayonda til vosita, milliy o‘zlik esa mazmun bo‘ladi.

Globallashuv haqida gapirganda ko‘pincha “milliy qadriyatlarimizni asrash kerak” degan fikrni eshitamiz. Bu, albatta, to‘g‘ri. Ammo milliylikni saqlash dunyodan uzilib qolish degani emas. Aksincha, bugun o‘z qadriyatlarini dunyoga tanita olgan xalqning ovozi balandroq eshitiladi.

Yoshlarimizga dunyo tillarini o‘rgatishimiz kerak. Shu bilan birga, ularga yuqorida keltirilgan talablarni ham uqtirishimiz zarur. Chunki tilning haqiqiy kuchi faqat so‘zlarni bilishda emas, shu so‘zlar orqali o‘z fikri, qadriyati va madaniyatini ifoda eta olishda namoyon bo‘ladi.

Bugun chet tilni o‘rganayotgan har bir o‘zbek yoshining qo‘lida katta imkoniyat bor. U dunyoni o‘rganishi mumkin. Shu bilan birga, dunyoga O‘zbekistonni ham tanitishi mumkin. Zero, dunyo bilan tengma-teng muloqot qilishning eng ishonchli yo‘li o‘zlikni anglagan holda, dunyo tilida gapira olishdir.



Mulohaza

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Qadriyat va an’analar

O‘ZLIKKA QAYTISH – BUYUK VA O‘ZGARMAS JARAYON

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans barpo etish uzoq muddatli ulug‘ maqsad sifatida belgilanib, mana, o‘n yildirki, shu yo‘lda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan ushbu strategik yo‘lning ma’no-mazmuni, maqsadi va ustuvor yo‘nalishlariga teran nazar tashlar ekanmiz, ular ko‘p jihatdan bundan bir asr muqaddam ulug‘ ma’rifatparvar jadid bobolarimiz boshlagan ma’rifiy harakatga uyg‘un va hamohang ekanini ko‘ramiz.



Visola QARSHIBOYEVA

Darhaqiqat, ana shu ilg‘or intellektual elitaning o‘tgan asr avvalida — g‘oyat murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda jamiyatni modernizatsiya qilish, xalqni jaholat va zulm kishanlaridan ozod etish, davlatchilik negizi bilan birga milliy o‘zlik asoslarini tiklash haqidagi orzulari bugun real voqelik, amaldagi qadriyatlar sifatida hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, xalqni birlashtirish, tarqoq aholi qatlamlarini yagona millatga aylantirish uchun barcha zamonda ham buyuk g‘oyalar kerak bo‘lgan. Ular el-ulusning azaliy orzu-umidlari, tub maqsad va manfaatlarini mujassam aks ettirgan taqdirdagina jamiyatni uyg‘otib, uni katta bunyodkor kuch, qudratli ijtimoiy harakatga aylantirgan. Hozir biz intilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi aynan ana shu talablarga javob berishi bilan g‘oyat muhim. Biz bu g‘oya timsolida keyingi ming yil davomida o‘zining buyuk bunyodkorlik salohiyati, fidokorona mehnati va ma’naviy jasorati bilan Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga doyalik qilgan mard va donishmand xalqimizning asl bunyodkorlik qiyofasini bamisoli tiniq ko‘zguda ko‘rgandek bo‘lamiz. Hech shubhasiz, bu bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi, tomirlarimizda uxlab yotgan ming yillik kuch-g‘ayrat, ilm-ma’rifat va ishonch tuyg‘usini qayta uyg‘otgandek bo‘ladi.

Ishga tushirilganiga hali bir yil ham bo‘lmagan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy ma’rifiy majmualariga xalqimiz nima uchun katta havas va qiziqish bilan qaramoqda? Chunki yangi O‘zbekiston mo‘’jizalari deb baholanayotgan bu me’moriy durdonalar qalbimizdagi ilm-ma’rifatga, o‘zlikni anglashga chanqoq nuqtalarga go‘yoki uch ming yillik tariximiz va madaniyatimiz bag‘ridagi giyohlardan malham qo‘ygandek bo‘ldi. Atoqli shoirimiz Omon Matjon aytganidek:

Yolg‘onning taxtdagi ming yil davroni
Haqiqat aytilgan bir damcha yo‘qdir.

Chindan ham Islom sivilizatsiyasi markazi zallarini bir marta aylanib chiqsangiz, ota-bobolarimizning ongu tafakkuriga asrlar davomida singdirib kelingan soxta gaplar bir zumda chippakka chiqib ketganini ko‘ramiz. Bu ulug‘ ma’rifat dargohidan butunlay boshqa odam bo‘lib chiqamiz. Haqqoniy tarix va madaniyat namunalari bizga o‘zligimizni, milliy g‘ururimizni qaytarib bergandek bo‘ladi.

Jahon adabiyotining mumtoz namunalarini, deylik, Gulxaniy bobomizning “Zarbulmasal”idan tortib, Paulo Koeloning mashhur asarlarini olasizmi — barchasida bir g‘oya, ya’ni shaxs faqat o‘zlikka qaytish orqaligina baxt va erkinlikka erisha olishi ta’kidlanadi. Olimlarning qayd etishicha, rosmana donishmandlik va qalb xotirjamligi esa, avvalo, o‘zini bilish va anglashdan, kuchli va kuchsiz jihatlarini idrok etishdan boshlanar ekan. Mavlono Rumiyning “Ichindagi ichindadur” degan iborada jam bo‘lgan falsafiy qarashlari ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Qisqasi, O‘zbekiston istiqboli, xalqimizning tinch va farovon hayoti uchun zamin bo‘ladigan g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarni olis o‘lkalardan yoki okean ortidan emas, mana shu yurtimiz tuprog‘idan, ajdodlarimizning ezgu intilishlaridan, xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning bunyodkorlik qudrati va salohiyatidan izlashimiz kerak. Uchinchi Renessans g‘oyasi ham aslida barchamizni shunga — baxt va taraqqiyot formulasini o‘z tariximizdan izlashga da’vat etadi.

Jadid bobolarimizning maqsadi ne edi?

O‘tgan asr bo‘sag‘asida Turkiston chuqur inqiroz domida qolgan edi. Chorizm imperiyasining mustamlakachilik zulmi va ichki konservativ turg‘unlik iskanjasida ezilib yotgan o‘lka o‘zining asrlar davomida misqollab yig‘ilgan mustaqil tarixiy subyekt sifatidagi qiyofasi va belgi-alomatlarini botmonlab boy berayotgan edi. Bu jarayonlarning halokatli oqibatlarini oldindan ko‘ra bilgan mahalliy ziyolilarning ilg‘or qatlami qudratli ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’rifiy hodisa — jadidlik harakatiga asos soldi.





Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Cho‘lpon o‘rta asrlarga xos turmush tarzini, eskirgan ijtimoiy munosabatlarni tubdan modernizatsiya qilmay turib, haqiqiy mustaqillikka erishish va mintaqaning qadimiy shon-shuhratini qayta tiklash imkonsiz ekanini yaxshi anglagan edi. Ularning islohotchilik qarashlarida uchta fundamental masala o‘qildiz bo‘lib turardi.

Birinchisi — ta’lim islohoti. Maktablardagi o‘rta asrlarga xos quruq yodlashdan yangi usuldagi maktablarga o‘tish maqsad qilib qo‘yildi. Jadidlar o‘quv jarayoniga, avvalo, matematika, fizika, geografiya va tarix kabi aniq va dunyoviy fanlarni kiritdi. Chunki Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozim” edi.

Ikkinchi masala — iqtisodiy erkinlik. Harakat yetakchilari moliyaviy mustaqilliksiz siyosiy ozodlik xomxayol ekanini yaxshi tushunardi. Ular shirkatlar, nashriyotlar tashkil etdi, milliy tadbirkorlikni rivojlantirdi. Turkiston iqtisodiyotini jahon xo‘jaligi tizimiga xomashyo bazasi emas, balki teng huquqli sherik sifatida integratsiya qilishga intildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasida chop etilgan maqolasidagi mana bu fikrlar o‘z davri uchun juda katta ahamiyatga ega edi: “Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog‘i, eski nimarsalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib, oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko‘rar. O‘z nimarsamizni Ovrupo bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotaturg‘on bizda bir odam yo‘q. Azbaski, Ovrupo ila savdo qilaturg‘on kishini (o‘zi) avval o‘n sana zamona ilmini o‘qumog‘i lozim. Bizda shohi, adras, beqasam, alocha... bofliklar bor. Agarda bir nafar texnik va muhandisimiz bo‘lsa, bu dastgohlarni isloh etar, ahali obod bo‘lur. Valloh, yaqin vaqtda “doka” bofillarimizdek zoe’ bo‘lib ketar. Chunki Ovrupo yangi asbob ila mundin yaxshi qilib chiqorur”.

Uchinchi masala — davlat va huquqiy ongni tadrijiy o‘zgartirish. Jadidlar fuqarolik jamiyatining dunyoviy institutlariga doir konsepsiyani shakllantirdi, qonun ustuvorligi, huquqlar tengligi va matbuot erkinligi uchun kurashdi. Ular nashr ettirgan “Sadoi Turkiston”, “Oyina”, “Najot” kabi nashrlar ochiq ijtimoiy-siyosiy muloqotning ilk maydoniga aylandi. Abdulla Qodiriy “Yig‘indi gaplar” maqolasida o‘sha davrdagi ahvolni achchiq kulgi ostiga olib, “... Darhaqiqat, mamlakatda islohotga muhtoj masalalar ko‘bdir. Masalan, kattalarga aql va basirat islohoti,... yoshlarg‘a axloq va kiyim, xotinlarga jabru zulm, domlalarg‘a din va salla,... va hokazo islohotlarga nihoyat darajada ehtiyoj ko‘bdir”, deb yozadi.

Ammo 30-yillardagi qonli qatag‘on jadid yetakchilari faoliyatiga butunlay barham berdi. Millat oydinlari jismonan yo‘q qilindi, biroq ular ilgari surgan g‘oyalar xalqning ongu tafakkuri va genetik kodida saqlanib qoldi. Mana endi oradan bir asr o‘tib, u yangicha qiyofada bo‘y ko‘rsatdi. Bugungi Uchinchi Renessans bu — jadid bobolarimiz boshlagan, tarixiy fojialar sababli tugallanmay qolgan ulug‘ ishning yangi ijtimoiy uyg‘onish sifatida qaytadan yuz ko‘rsatishi desak, xato bo‘lmaydi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar xronologiyasiga nazar tashlasak, nozik qonuniyatni kuzatishimiz mumkin. Bu jarayondagi ketma-ketlik amerikalik mashhur ruhiyatshunos Abraham Maslouning ehtiyojlar piramidasiga uyg‘un bo‘lib ko‘rinadi. Unga ko‘ra, inson hayotining asosini fiziologik ehtiyojlar, ya’ni ovqat, suv, uyqu hamda boshpana tashkil etadi. Keyingi o‘rinda xavfsizlik ehtiyoji turadi. Bularga himoya, barqarorlik, qonun va ertangi kunga ishonch ham kiradi. Bu ehtiyojlar ta’minlanganidan keyingina ijtimoiy ehtiyojlarga o‘rin beriladi. Shundan so‘ng hurmat va insoniy qadr-qimmatga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu — erishilgan yutuqlarning e’tirof etilishi, jamiyatda hurmat-e’tibor topish va o‘z qadr-qimmatini anglash demakdir. Eng oxirgi o‘rinda o‘zini namoyon qilish, ya’ni shaxsiy salohiyatni yuzaga chiqarish, ijod, erkin tafakkur va o‘z hayot yo‘lini topib olish kabi masalalarga e’tibor qaratish mumkin. Ya’ni biz orzu qilgan ongli va mamlakatni taraqqiyotga boshlaydigan jamiyatni qurish uchun mana shu bosqichlardan birma-bir o‘tishimiz kerak.

Maslou ta’kidlaganidek: “O‘lar darajada och odamni ovqatdan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi. Uning tushiga ovqat kiradi... Boshqa har qanday maqsadlar — erkinlik, muhabbat, hurmat, falsafa arzimas matohga aylanib qoladi”.

Ana shu asosida fikrlasak, mamlakatimizda 2016-yilda boshlangan demokratik islohotlarning birinchi bosqichi jamiyatning eng birlamchi ehtiyojlarini qondirishga qaratildi deb xulosa chiqarish o‘rinlidek tuyuladi. Valyuta konvertatsiyasi, majburiy mehnatning bekor qilinishi, tadbirkorlik yo‘lidagi byurokratik g‘ovlarning olib tashlanishi insonga o‘z qadr-qimmatini qaytarib berdi.

Albatta, kundalik sun’iy to‘siqlarni yengish bilan ovora bo‘lgan xalq texnologik va intellektual sakrashlar haqida o‘ylay olmaydi. Ma’rifatga ehtiyoj tug‘ilishi uchun, avvalo, ijtimoiy ehtiyojlar ta’minlanishi shart edi.

Mintaqaviy birdamlik va yaxshi qo‘shnichilik: Amir Temur o‘giti

Hech bir Renessans dunyodan uzilgan holda yoki tashqi tahdidlar sharoitida rivojlana olmaydi. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan konstruktiv va do‘stona muloqot tiklangani yangi O‘zbekiston uchun ikkinchi muhim qadam bo‘ldi. Mamlakatimiz ulkan iroda, jasorat va tashabbus ko‘rsatib, mintaqadagi integratsiya jarayonining lokomotiviga aylandi. Bu siyosat Amir Temurning o‘z zamonida shakllantirgan davlatchilik tafakkuri bilan ko‘p jihatdan mushtarak ekani e’tiborlidir.

“Temur tuzuklari”da “Qo‘shnilar bilan tinchlik va totuvlik bo‘lmagan joyda savdo xonavayron bo‘ladi, madrasalarda chiroqlar o‘chadi, olimlarning ovozi o‘chadi. Mulk faqat uning atrofida tinchlik va adolat hukm surgandagina mustahkamdir”, deb ta’kidlaydi. Bu bebaho fikrlar aynan bugunimiz uchun aytilgandek.

Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham yurt ravnaqi uchun xalqaro munosabatlarni hisobga olishning ahamiyatini ta’kidlab, “...50 sana muqaddamgi zamonda biz — turkistonlilar yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo‘q edi. Endi zamon o‘zgarib, boshqa millatlar ila maxlut bo‘lduk, shariat va o‘z urfimiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz”, deydi.

Mashhur geosiyosatchi Zbignev Bjezinskiy “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida “Markaziy Osiyoning haqiqiy kuchi yer osti boyliklarida emas, balki mintaqaning yagona barqarorlik, savdo va madaniyat maydoniga aylana olish qobiliyatidadir”, deb mintaqamizdagi bugungi ijobiy jarayonlarni oldindan bashorat qilgandek bo‘ladi.

Prezidentimiz doim uqtirib kelayotganidek, eng muhimi, yurtimizdagi islohotlar natijasini bugun odamlarning kundalik hayoti, kayfiyati, dunyoqarashida yaqqol ko‘rish mumkin. Yoshlarimizning nutqida chegara yo‘qligi, hayotda marrani katta olayotganidan bilish mumkinki, O‘zbekiston insoniy jihatdan ham rivojlanishning butunlay yangi bosqichini boshdan kechirmoqda. Biz dunyoga, ilgari o‘zimiz yetolmagan imkoniyatlarga ochildik, lekin shu bilan birga, jahonda kuzatilayotgan xavotirli vaziyatlardan to‘la himoyalangan emasligimizni ham tan olishimiz kerak.

Jadidlar nega aynan erkinlik va ozodlikka intilgan edi? Nega ular maorif va matbuotni erkinlikning ajralmas qismi deb bildi? Chunki ma’rifatparvar bobolarimiz oddiy bir haqiqatni chuqur anglab yetgan edi: erkinlik shunchaki siyosiy maqom emas, balki inson tafakkuri, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqaradigan ijtimoiy muhit hamdir. Qaram va tobe inson ijod qila olmaydi, kashfiyot yaratolmaydi, Vatanining taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni zimmasiga ololmaydi. Tobelik insonni faqat maishiy va ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish darajasida hayot kechirishga majbur qiladi.

Jadid namoyandalarining boy merosini arxiv tadqiqotlari doirasida qoldirmay, ularning ma’rifiy kuchidan islohotlar jarayoni va vatanparvarlik tarbiyasida foydalanishda yuqori darajadagi institutsional ko‘mak muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz tashabbusi bilan jadidlar falsafasi zamonaviy qarorlar va madaniy trendlar tiliga tarjima qilinmoqda.

Global ilmiy muloqot. Toshkentda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” xalqaro konferensiyasi dunyoviy huquqiy davlat barpo etish, so‘z erkinligi va ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar jadidlar boshlagan yo‘lning davomi ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Til va alifbo islohoti. Lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosiga doir islohotni yakuniga yetkazishga qaratilgan tashabbus global raqamli makonga to‘liq integratsiyalashuv yo‘lida muhim qadam bo‘lib, o‘z vaqtida jadidlar til bo‘yicha o‘tkazgan munozaralar bilan hamohangdir.

Ma’rifatni ommalashtirish. Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan “Jadidlar. Turkistonga maktublar” multimediali ko‘rgazmasi tarixiy xotira va xorijda ta’lim olayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga oid dasturlar o‘rtasida mustahkam ko‘prikdir.

Ayni shunday yondashuv tufayli jadidlik harakati, boy merosi faqat darslik va kitoblardagi statistik qaydlardan iborat bo‘lib qolmay, davlat taraqqiyotining dinamik brendiga aylanishi uchun sharoit yaratildi.

Amaliy ifoda

Jadid bobolarimizning orzu-armonlari bugun “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak barpo etamiz!” degan ezgu g‘oya ostida amalga oshirilayotgan va yaqin yillarga mo‘ljallangan islohotlarda o‘z aksini topmoqda.

Kafolatli ta’lim va kelajak kasblari. Maktabgacha ta’limda qamrovni 100 foizga yetkazish, 1 million yoshni AT va zamonaviy kasblarga o‘qitish hamda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarini jahonning yuqori reytinglariga kiritish — jadidlarning ma’rifatchilik missiyasini davlat miqyosida davom ettirishning amaliy ifodasidir.

Iqtisodiy suverenitet. 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, iqtisodiyotga 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish va yuqori daromadli minglab ish o‘rinlarini ochish orqali moddiy mustaqillik asoslari mustahkamlanmoqda.

Ijtimoiy va huquqiy kafolatlar. Mahalla institutini modernizatsiya qilish, sud tizimi mustaqilligini ta’minlash va sog‘liqni saqlashga ajratiladigan mablag‘larni YIMning 5 foiziga yetkazish — ajdodlarimizning qonun ustuvor bo‘lgan va ijtimoiy mas’uliyatli davlat haqidagi g‘oyalari bugun evolyutsion, ya’ni tadrijiy tarzda amalga oshirilayotganidan dalolat deyish mumkin.

Hozir biz uchun yana bir ulug‘ maqsad — Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda asosiy bunyodkor kuch bo‘ladigan, erkin va ozod fikrlaydigan avlodni tarbiyalashdan iborat. Biz yoshlarimizni buyruq va ko‘rsatmalarni ko‘r-ko‘rona bajaradigan passiv ijrochi emas, balki mustaqil fikrga ega, jahon standartlari darajasida fikrlaydigan, o‘z haq-huquqi va mas’uliyatini anglaydigan komil inson etib kamolga yetkazmoqchimiz. Prezident maktablari, AT parklari, xorijda ta’lim olish imkoniyatlari va yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati ham aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan.

Amerikalik sotsiolog Frensis Fukuyama ta’kidlaganidek, millatning yashovchanligi va raqobatdoshligi uning moliyaviy kapitali bilan emas, balki ijtimoiy ishonch darajasi va institutlar sifati bilan belgilanadi.

Uchinchi Renessans shunchaki shior yoki moziyga ehtirom emas. Bu insonning bazaviy ehtiyojlarini yuksak darajada ta’minlash va mintaqada xavfsizlikni mustahkamlashdan tortib, fuqarolik subyekti sifatidagi milliy o‘zlik tuyg‘usi va ozod tafakkurni uyg‘otishgacha bo‘lgan yo‘nalishlarni qamrab oladigan uzoq muddatli va puxta ishlab chiqilgan strategiyadir.

Jadid bobolarimizning qora o‘tmishdagi o‘ta fojiali davrda to‘liq ro‘yobga chiqmay qolgan orzu-armonlari yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshib, ana shu strategiya asosida mustahkam institutsional maqomda yuksak bosqichga ko‘tarilmoqda.

Biz — yoshlar bu haqiqatni chuqur anglagan holda bugungi buyuk va ortga qaytmas jarayonlarning ishtirokchisi ekanimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Yurtimizning millionlab o‘g‘il-qizlari ayni shunday faxr va ishonch tuyg‘usi bilan dadil maydonga chiqayotgani mamlakatimizning ulkan salohiyati va imkoniyatidan dalolat beradi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60